

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA
INSTITUTI

UDK

MAGISTRATURA BO‘LIMI
O‘ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

QUTLIMURATOVA MADINA KOPTLEUOVNA

**«HOZIRGI O‘ZBEK SHE’RIYATIDA
RUHIY KECHINMA VA BADIY TALQIN»**

Mutaxassislik: 5A141102 - o‘zbek adabiyoti

Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan

D I S S E R T A T S I Y A

**Davlat attestatsiya komissiyasida
himoya qilishga ruxsat berildi.**

Magistratura bo‘limi boshlig‘i:

p.f.n dots. U.Seytchanova

Kafedra mudiri:

f.f.n. S.Matyakupov

Ilmiy rahbar:

f.f.n. S.Matyakupov

NUKUS – 2011

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. SHE'RIYATDA AN'ANAVIYLIK VA NOVATORLIK.....	6
II BOB. LIRIK KECHINMA VA BADIY IFODA	25
III BOB. RUHIY KECHINMA VA OBRAZLILIK.....	48
XULOSA.....	76
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI.....	79

K I R I S H

Mavzuning dolzarbligi. Zamonaviy o'zbek she'riyatining ma'naviy miqyosi, badiiy salohiyati kundan-kunga oshib borayotganligi hech kimga sir emas. Shu ma'noda hozirgi o'zbek adabiyotida lirika adabiy turining o'rnini alohida tahsinga sazovor. Biroq ana shu boy va rang-barang xazinaning ijtimoiy-psixologik asoslarini, hozirgi ahvoli va istiqbolini yoritib beradigan ilmiy-nazariy tadqiqotlar nisbatan kam yuzaga kelmoqda. Hozirgi milliy poetika zamondoshimiz qalbida kechayotgan his-tuyg'ularni aks ettirish barobarida mamlakatimizning har bir a'zosida mustaqillikka shukronalik, porloq kelajagiga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Mamlakatimiz Prezidenti I.Karimovning «Odamlarda o'zligini anglash, milliy g'urur, oriyat, o'tmishdan faxrlanish, porloq kelajakni o'z qo'limizga olganimizdan g'ururlanish kabi tuyg'ular kamol topayapti, ularning bugungi va ertangi kuniga ishonchi ortib boryapti»¹, deya e'tirofining asosiy mohiyati hozirgi she'riyatimizga ham taalluqlidir, desak yanglishmagan bo'lamiz.

Biroq bu nodir manbani ilmiy tahlil etish, uning mohiyatini she'rxonga etkazishda ijtimoiy fanlarning, xususan, adabiy-nazariy tadqiqotlarning roli benihoya kattadir. Masalaning shu tomoniga e'tibor qaratgan yurtboshimizning: «Mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash, milliy davlatchilikni shakllantirish, huquqiy demokratik davlatni barpo etish va fuqarolar jamiyatini qaror toptirishdek ulug' orzu-umidlar bilan yashar ekanmiz, ijtimoiy fanlar sohasidagi ilmiy izlanishlar va ularning natijalariga alohida e'tibor bermaslik mumkin emas»², deb ta'kidlashi malakaviy ishimizning ham dolzarbligini belgilab beradi.

Dissertatsiya ishining maqsad va vazifalari. She'riy ifodaning mag'zi va muhim bosqichi hisoblangan lirik kechinma, uning badiiy xususiyatlarini to'g'ri ta'min eta bilishdan ko'zlangan asosiy maqsad ijod qonuniyatlari takomilini

¹ Karimov I. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. –T.: O'zbekiston, 1996. –B. 260.

² O'sha asar, 260-bet.

hamda mohiyatini nazariy jihatdan umumlashtirishdan iborat. Ana shu maqsaddan kelib chiqqan holda malakaviy ishimiz o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

- bugunga qadar adabiyotshunoslik ilmida keng qo'llanilayotgan bo'lsa-da, nazariy jihatdan to'la ta'riflanmagan lirik kechinma tushunchasiga aniqlik kiritish;

- tuyg'uning she'r yaratilishi – ijod jarayonidan ajratish mumkin bo'lmagan universal estetik hodisa ekanligini asoslash;

- hissiy idrok jarayonining janriy – uslubiy o'ziga xosligini ochib berish;

- istilohning xususiy va umumiy poetik qirralarini belgilash.

Dissertatsiyaning amaliy ahamiyati. Ishning asosiy natijalari va muhim xulosalaridan adabiyotshunoslikda, shuningdek, o'zbek she'riyatining taraqqiyot xususiyatlarini o'rganish yuzasidan ilmiy-tadqiqotlar olib borishda foydalanish mumkin. Shuningdek, oliy o'quv yurtlarida o'zbek adabiyoti bo'yicha maxsus kurslar va seminar mashg'ulotlarini tashkil etishda ham manba sifatida xizmat qilishi mumkin.

Dissertatsiyaning ilmiy yangiligi. Darhaqiqat, har yili bir nechta she'rlar yaratiladi. Ularning bir qismi matbuotda yoritilsa, ikkinchi juzvi alohida to'plam holida nashr qilinadi. Ularni tadqiq etish, yutuq va kamchiliklarini tahlil etish borasida adabiyotshunosligimizda salmoqli ishlar amalga oshirilayotganligini inkor etib bo'lmaydi. Biroq she'r negizida yotadigan, uning mohiyati hamda hissiy ta'sir doirasini belgilab beradigan mag'z nazariyasini o'rganish hanuz-hanuzgacha yo'lga qo'yilgan emas. Adabiyotshunoslikdagi ana shu ruhiy bo'shliqni to'ldirish maqsadida malakaviy tadqiqotga qo'l urdikki, natija o'laroq izlanish mohiyatining ahamiyati bo'rtib ko'zga tashlanadi.

Eng muhimi shundaki, lirik kechinma tabiatining ochilishi nafaqat poetik o'ziga xoslikni, balki hozirgi she'riyatimizning etakchi g'oyaviy-badiiy tamoyillarini aniqlash, uning istiqboldagi taraqqiyotini ham belgilashga imkoniyat yaratadi. Mazkur jihat ishimizning qimmatini yanada teranlashtiradi.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Dissertatsiyada R.Parfi, B.Ro‘zimuhammad, Sh.Rahmon, H.Xudayberdieva kabi ijodkorlarning she’rlari tahlil qilindi. Ba’zi o‘rinlarda istiqlogacha bo‘lgan va istiqlol davri o‘zbek she’riyati namunalari bilan qiyoslandi.

Dissertatsiyaning tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uch bob, umumiy xulosalar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, hajmi 80 sahifani tashkil etadi.

I BOB

SHE'RIYATDA AN'ANAVIYLIK VA NOVATORLIK

Bugungi kunda o'zbek she'riyatidagi badiiy yangilanishlar shakliy-mundarijaviy izlanishlar mustaqillikning qo'lga kiritilishi tufayli milliy tafakkurda paydo bo'lgan o'zgarishlar bilan bog'liq. Milliy badiiy tafakkurning yangilanishi tufayli o'zbek adabiyotida badiiy asar tili, adabiy matnning qurilishi, ritm, vazn, qofiya, she'riy san'atlarni qo'llash tamomila boshqa ma'no kasb etadi. Bu davrda ruh falsafasini anglatishga bo'lgan intilish, ziddiyat qarama-qarshiliklar mohiyatiga chuqurroq kirib borishga harakat ranglar uyg'unligi va tasvirining quyuq bo'lishiga e'tibor kuchaydi. Shoiralar tamonidan olam hodisalariga, hayot manzaralariga turli jihatdan yondashish-«bir predmet bir tolay nigoh tashlash» o'zlashtirildi. O'zbek she'riyatidagi ijodkorlarning o'z ichki dunyosi sirlarini inkishof etishga kuchli urinishlar ko'zga tashlanadi. Modernizm, formolizm, simvolizm singari yo'nalishlarga xos belgilar kirib keldi. Buning oqibatida she'rning shakli, shoirning uslubi o'zgaradi va she'riyat oldingi davrlarga nisbatan ranglashdi. Ruhiyat manzaralarini aks ettirish badiiy matn tiliga mavhumlik unsurlari, serqirra ishoralarini singdirdi.

She'riyatda ijodkorning kechinmalari va ruhiy holatiga e'tiborning kuchayishi shakliy izlanishlarning ko'payishiga olib keladi. 80-yillar she'riyatida bo'y ko'rsatgan bu holat 90-yillarga kelib, yosh ijodkorlarning deyarli barchasida kuzatila boshladi. Shakliy izlanishlar samarali bo'lgan va o'zbek kitobxoni ko'nikib ulgurmagan asarlar o'quvchilar tamonidan harxil kutib olindi. Masalan, G'ulom Mirzo she'rlarini alliteratsiya hodisasi, so'zlarning omonimlik xususiyatdan foydalanish asosiga quradi. Tashkil belgilariga ularning punktuatsion funktsiyasidan tashqari, boshqa vazifalar ham yuklaydi. Rustam Musurmon she'riyat tilini sheva leksikasi va og'zaki unsurlari bilan boyitdi. Shoir tovushlarini orttirish, cho'zish, juftlash yoki yozuvlarni bo'g'inlarga ajratish orqali she'riy ohang hosil qilishga erishadi. Faxriyon

ijodida amfiboliyalar (iboraning kamida ikki ma'noda kelishi), ruhiy kechinma tasvirini istiora, metonimiya singari she'riy san'atlar va ramzlarda berish, so'zlarning oxirgi bo'g'iniga turlash orqali shakliy o'zgachalikka erishish, bir so'zni ikki turkumga xos qilishga urinish singari xususiyatlar kuzatiladi. Bahrom Ro'zimuhammad she'rlarida kayfiyatning shaklini chizishga bo'lgan ishtiyoq kuchlilik qilsa, Zebo Mirzaeva va Abduvohid Hayit ijodida tasavvufona kuzatishlar ustunlik qilishi seziladi.

Darhaqiqat, istiqlol yillari o'zbek she'riyatida falsafiy-intellektual ohang ancha kuchaydi. Inson ruhiyatini, ehtiros, his-tuyg'ularning keng silsilasini turfa ziddiyatli buyoqlarda aks ettirish, odamzod shuurini band etgan muammolarni butun murakkabligi bilan suvratlantirish, Shaxsning yuksak milliy-umuminsoniy mohiyatini ekspressiv tarzda ochib berishga intilish etakchi yo'nalishga aylandi.

Ijtimoiy ongda yuzaga kelgan o'zgarishlar ifodasi sifatida ko'ngil dunyosining teran qatlamlariga kirib borish, o'zgarayotgan ma'naviy olamni idrok etishning yangicha shakl-tamoyillarini kashf etish uslubiy-shakliy izlanishlar tabiati hamda ko'lamini belgilab bera boshladi. Ijod, e'tiqod va so'zga munosabat tubdan yangilandi.

Ma'lumki, har bir davr o'z aqidalari, dunyoqarashi, estetik qadriyatlarini ilgari suradi. Mavjud ijtimoiy-psixologik vaziyat, nazariy asos badiiy tizimga ham ta'sir ko'rsatadi. Tabiiyki, milliy ma'naviyat jarayonini shakllantirishda ruhiy munosabatlarning ham shaxsiy, ham ijtimoiy mohiyatini poetik tadqiq etish, an'anaviy va zamonaviy badiiy tamoyillarning uzviy aloqadorligi-tajribalarini umumlashtirish, publitsistik-falsafiy tasvir ko'lamini kengaytirish, turfa badiiy shakllarni uslubiy-mazmuniy izlanishlar bilan boyitish muhim ahamiyat kasb etadi.

Modomiki, mohiyatni yangilab turishga yo'naltirilgan adabiyot jamiyat belgilab bergan mezonlarga tayangan holda rivojlanar ekan, ongning tadrijiy takomildi poetik tafakkur usul va vositalari, ifoda va tasvir imkoniyatlarini ham

tabiiy ravishda o'zgartirib yuboradi. Demak, o'z san'atining spetsifik xususiyatlarini aniqlab olishda ikki-badiiy-psixologik omillar bilan bir qatorda, tashqi-ijtimoiy-falsafiy fikr taraqqiyotini ham hisobga olish lozim.

Zamonaviy she'riyat XX asrning so'nggi o'n yilligida yangi miqyos, yangi kengliklarga ko'tarildi. Badiiy psixologizm tamoyillarining teranlashishi, mavzu doirasi va talqinida rang-baranglikka intilishning ortishi samarasi o'laroq, ijtimoiy muhokama o'rniga ruhiy faollik kirib kelishi jarayonining tezlashishi, shaxsiy intim kayfiyat tasviri ustivorligi mustaqillik yillarida bir qadar barqarorlashdi. Yuzaga kelgan ijodiy erkinlik sharoitida ko'p qatlamli she'riyat takomili ko'zga tashlanadi. Atoqli shoirimiz R.Parfi ijodida kuzatilgan uslubiy-shakliy izlanishlardan ma'naviy oziq olgan she'riyat jahon so'z san'ati tajribalari bilan uyg'unlashib nozik namunaviy-umumlashma she'riyatni shakllantirmoqda. Bu she'riyatda so'zni o'zgacha shakllarda istifoda etish, yuksak aql-idrok (intelekt)ni fikriy tiniqlik hamda hissiy aniqlik sari yo'naltirish inson borlig'ini poetik tadqiqot ob'ekti darajasiga ko'tarish ruhiyat iqlimlarini chuqur falsafiy-majoziy tahlil qilishga moyillik, shaxsiy ixchamlilik asosiy vositalardan biri sifatida bo'rtib ko'rinadi.

Agar 60-yillar o'zbek she'riyatiga bugungi she'riyat kamolot bosqichidan turib nazar tashlasak, uning sahifalarida tinchlik uchun imzo chekayotgan bag'riga bosib olgan farzandiga: «O'g'lim, sira bo'lmaydi urush», deyayotgan, g'o'za paykallariga yarim tunda, suv tarayotgan, xullas, er yuzida tinchlik bo'lishini, partiyani, xalqni vatanni o'ylayotgan kishilarni ko'ramiz. Bu qahramon o'zidan boshqa hamma ijtimoiy muhim narsani o'ylaydi, dunyo va yurt tashvishlari bilan yashaydi. Lekin uning ko'kragiga qo'l uzatsangiz, unda yurak borligi sezilmaydi. Dunyoga aql ko'zi bilan nazar tashlagan bu qahramon ichki jozibadan mahrum bo'lganligi uning hissiy olami, ichki go'zalligi, tuyg'ulari po'rtanasi muzlab qolgandek tasavvur uyg'otadi.

30-yillarning o'rtalarida «sof lirika»ga qarshi boshlangan kurash oqibatida faqat o'zbek emas, balki ko'pmillatli sho'ro she'riyatida «grajdanlik she'riyati»

tantana qilgan va she'riyatda go'zal ichki dunyo manzaralari, tuyg'u va kechinmalar quvib chiqarilgan edi.

50-yillarning o'rtalaridan keyin «temir parda» bilan uralgan mamlakatning ijtimoiy ma'naviy hayotida yangi shabadalar esa boshlagach, she'riyatning po'panak bosgan satdi to'lqinga keldi. Oybek, Mirtemir, Shayxzoda, Asqad Muxtor, Zulfiya, Shukrullo, Mamarasul Boboev she'riyatida ko'ringan yangi mavjlar ortidan adabiyotga yangi shoirlar avlodi kirib keldi. Ana shu avlodning iste'dodli vakili Rauf Parfi nayidan nafis va samimiy kuylar jilg'asi paydo bo'ldi.

Shoir o'quvchini she'rni tushunishga, uning mag'zini chaqishga chorlaydi. U o'quvchining aqliy saviyasiga ishonadi. Ana shunday ishonchdan kelib chiqib, masalan, Omon Azizning «Qandakorlar» degan mashhur «misnoma»sini sharhlab, bunday yozadi:

O'ltirishar ikki jununvali,
Ikki jahon bilmagan jahon,
Ikki shoir ma'yus, hayolkash,
O'rtalikda olov siyohdon.

Mangu yonar lahzalik otash,
Qotib qolgan xayol bepayon:
Asriy hasrat yurakdagi tosh,
Bir lahzalik shodlik namoyon.

Bunday sharhlardan keyin shoir yana istioraviy fikr iplarini tarang tordadi:
Kelajakka yog'dirar savol,
Guyo tunda imkon axtarib,
Chorlar misda muzlagan olov

Suratkash fotokamera nigohi orqali muhrlangan suratida kishi yo kishilarning bir lahzadagi holatini avlodlarga qoldirishi mumkin. Garchand

misga o'yilgan bo'lsa-da, ikki shoirning tup qo'ynidagi atrofida o'tirgan xayolkash holati tasvirida faqat shu xayolning, kayfiyatning harakati emas balki tunning, tungi salqinning «muzlagan olov» orqali berilgan obrazi ham bor. Ikki jununvash shoir gulxan atrofida suhbat qurib, xayol surar ekanlar, hamma narsani yutmoqchi bo'lgan tun ular qarshisida ojizlik qiladi; ular yoqqan gulxan, ular fikri va xayolidagi tiriklik nuri tunni quvadi. «Muzlagan olov» esa o'z taftiga, o'z atrofiga bizni ham, kelajakda esa, avlodlarni ham chorlaydi.

Rauf Parfi shu tarzda o'z hissiyotlari orqali bizning fikrimizni turli yo'nalishda harakatga keltiradi. U tuyg'unning tabiat va kishilar timsolida yashiringan holatini sekin-asta jonlantira borib, unga turli ranglar beradi, uni turli shakllarga soladi va shu tarzda o'quvchining ruhiy olamini mavjlantirib yuboradi.

Shoirning 60-yillar ijodida nish urgan va keyinchalik yanada kamol topgan bu fazilatlar o'zbek she'riyati uchun mutlaqo yangilikdir. Deyish to'g'ri emas. She'riyat maydonga kelibdiki, u inson ruhining nafasini, qalbining turli fasllarini tasvirlashga intiladi. Alisher Navoiy cho'qqisi bo'lgan o'zbek mumtoz she'riyatida ham bu fazilat jilvalanib turadi. XX asr o'zbek she'riyatidagi yangicha yo'nalish bergan shoirlarning biri-Cho'lpon ijodida esa ruhiy olamning ichki tamannolari aks sado beradi. Cho'lpon ijodida ayniqsa nurlangan bu printsip Oybek tamonidan ham, Mirtemir tamonidan ham davom ettirilgan. Lekin shunga qaramay lirik hissiyotni nafis tasvirlash usuli Rauf Parfi she'rlarida avj nuqtasiga erishdi.

XX asr o'zbek nazmchiligida tamomila o'ziga xos hodisa sifatida Rauf Parfi she'riyati dastlabki bosqichidan boshlaboq adabiy jamoatchilik o'rtasida keskin baxs-munozaralarga sababchi bo'ldi. Aksar tortishuvlar ikki masala doirasida aylandi: bular goh mungli, goh jo'shqin qirralarda namoyon bo'luvchi murakkab obrazlilik va she'rlarning dard qobig'iga urilganligi! Bu tabiiy hol edi, albatta. Birinchidan, pand-nasihat atrofida aylangan o'zbek she'riyati obrazlilikni, xususan, murakkab obrazlilikni hazm qila olmas edi. Qolaversa,

qallobona ko'tarinkilik (optimizm)ga asoslangan adabiy jarayonga «dard» umuman yot unsur edi.

Bugungi kunda Rauf Parfi ijodi bo'yicha bir qator ilmiy asarlar yaratildi. Lekin ular barmoq bilan sanarli, hammasi ham talab darajasida emas. Shoir ijodi bo'yicha qator ilmiy maqolalar maydonga keldi. Bu ishlarda jiddiy fikrlar, hatto bir-biriga zid fikrlar ham uchraydi. Eng achinarlisi esa Rauf Parfi she'riyati xususida badiiy mushohadalarni umumiy rejada bayon qilib ketish hollari ko'proq uchraydi. Xususan, R.Qo'chqor, R.Rahmat «G'oyaviylik-adabiyotimizning bosh mezon» maqolalarida bu hol yaqqol ko'zga tashlanadi.¹ Ijodkor she'riyatining yangidan-yangi qirralarini kashf etish, undagi obraz masalasi bo'yicha adabiyotshunos olim, filologiya fanlari doktori, professor Botirxon Akrom samarali mehnat qilmoqda². U o'z tadqiqotlarida R.Parfi she'riyatining gultoji hisoblangan «Shoir», «Betxoven», «Turkiston yodi», «San'atkor» nomli ash'orlarini atroflicha tahlil qildi. Shoir she'rlarining o'ziga xos zarif xususiyatlarini umumlashtiradi. Qozoqboy Yo'ldoshev ham o'rganilgan soha-Rauf Parfi ijodini maktabda o'rganish bo'yicha maktab darsligi dasturiga shoirning eng mukammal, eng go'zal she'rlari kiritgan. «Tong otmoqda...», «Yomg'ir yog'ar» singari she'rlar tadqiqotchi ob'ekti qilib olinib imkon qadar tahlil qilingan.³

Rahimjon Rahmatning «Jannat sog'inchi» maqolasi ko'proq va'da usulida bitilgan bo'lib, zalvorli fikrlar deyarli uchramaydi. Raxmon Qo'chqor «Qisqa tanafus» maqolasida keyingi o'n yilliklar o'zbek nazmchiligiga sharx berishga harakat qiladi. U o'z fikrini davom etar ekan. Zamonaviy o'zbek nazmchiligini ikkiga ajratadi: Shaxs she'riyati va Omma she'riyati! Omma she'riyati namunasi sifatida M.Yusuf she'rlarini va shaxs she'riyati namunalari talqinida R.Parfi ijodini oladi. Iqdidorli yosh olim ikki xususiyatga e'tibor bersa maqsadga muvofiq bo'larmidi?! Birinchidan, insoniyat ruhiy olami nisbatan

¹ Qo'chqor R. Qisqa tanafus // «Vatan» gazetasi, 1994. №25.

² Rahmat R. Jannat sog'inchi // O'zAS., 1993. №31.

³ Yo'ldoshev Q. R.Parfi ijodi bo'yicha uch dars // Til va adabiyot ta'limi 2003. №1-B. 94.

rang-barang. Ammo umumbashariyat ruhiyatida qandaydir bog'liqlik, mushtaraklik mavjud. Aynan shu mushtaraklikka asosan shoir xususiy hissiy holatlarni kashf etadi. Shunday ekan, she'rni shaxsiy yohud ommo she'riyati deb ajratish to'g'ri bo'larmikin?! Qolaversa har bir ijodkor ijodida aks etgan «men»i borliqning umumlashgan ko'rinishi, shaxs qiyofasiga yashiringan omma qiyofasi mazmunini ifodalashga hizmat qiladi.

Odamzot mehrga muxtoj go'dakka o'xshaydi. Extimol, uni barcha tuyg'ular tark etishi mumkin, lekin mehrga bo'lgan ehtiyoj emas.

O'ychan kecha, tun ichra tanho,

Rauf Parfi qoldik ikkovlon.

Biz mehrga to'ymadik aslo,

Mehr, mehr istaymiz hamon!

She'riyat asrlar davomida sohir san'at sifatida insonning ruhiy ibtidosini kashf etishga intilib kelgan. To'g'rirog'i, poetik ifoda madaniyati odamzod orzu-istaklari, maqsad intilishlarini betakror estetik mezonda baholash garovidir. Shunday ekan, hamisha sir-sinoatlarga oshno nazm tabiatini tahlil hamda tadqiq etish kuchli ma'naviy ehtiyojlarni keltirib chiqaraveradi. Ayni paytda, mazkur istiloh badiiyatiga ta'sir o'tkazadigan ichki va tashqi omillarni ilmiy asosda o'rganish uni idrok etish hamda anglashga zamin hozirlaydi. Lirik tasvirni shakllantiradigan faktorlardan eng muhimi kechinma tabiati bilan chambarchas bog'liq.

«O'ttiz yil davomida she'r haqida o'yladim, uning ifoda shakllari, vositalari, printsiplari, ruhi haqidagi fikrlar juda ko'p marta o'zgardi: she'r turmush o'chog'idan olingan laxcha cho'g', hayotiy epizodga asoslangan, syujetli bo'lishi kerak, deb she'rning bo'lak turlarini tan olmay ancha yil yurdim; she'r yalt etgan oniy tuyg'u, zavq-shavq tug'yoni, uni faqat muzika janrlari bilan qiyos qilish mumkin, degan ruhda ham ancha vaqt ishladim; she'r hayot falsafasining essentsiyasi, fikr, fikr, fikr! Fikrsiz poeziya yo'q deb, anchagina biryoqlama ratsionalistik she'rlar yozdim...», - deb yozadi iste'dodli shoir

Asqad Muxtor. Darhaqiqat, poeziya – murakkab jarayon. Shoir ijodini kechinma tabiatiga muvofiq uch guruhga ajratish mumkin:

Ulardan birinchisi syujet motivizatsiyasi asosiga quriladigan she'r namunalari:

Qamishdan nay qildi cho'pon. etim,yolg'iz,
Nay navosi yangrar yiroq-yiroqda.
Shundan beri har tong ko'za tutgan qiz
Keladigan bo'ldi buloqqa.
Ko'p asrlar o'tdi, nuradi xarsanglar,
Endi yo'q, albatta, dunyoda cho'pon.
Nay ham chirib ketdi...
Navo esa yangrar
Va qiz hanuz kelar buloqqa har tong.

«Navo» deya nomlanadigan yuqoridagi she'rda voqeabandlik bo'rtib ko'rinadi. Aniqrog'i, turli xalqlarning ertak va rivoyatlarida tez-tez uchrab turadigan syujetlarga o'xshash kichik bir hayotiy lavha badiiy izlanishning yaxlitligini ta'min etadi. Shu bilan birga u chuqur falsafiy, majoziy ma'nolarni o'z bag'rida yashirib turibdi. Ayni ma'nolar shoirga tegishli, uning she'rga yuklagan badiiy haqiqati ham shu erda – navoning, san'atning manguликka daxldorligi va unga bo'lgan ehtiyojning ortib borishini aytishda namoyon bo'ladi.

Ikkinchisi – she'rning yalt etgan oniy tuyg'uga tenglashtirish istagi bilan bog'liq. Asqad Muxtorning «99 miniatyura» to'plamiga kiritilgan «Tong» deb nomlangan yoxud «Ikkov yolg'iz edik...», «Kuzgi ellar...», «Eslab yoshligimni...» deya boshlanadigan o'nlab she'rlari shu istak-ishonch mevasidir:

Eslab yoshligimni – she'r ilhomchisin,
Uyda o'ltirardim xayolchan. Biroq,
Derazamni chertdi yomg'ir tomchisi,

er-ko'kni titratdi momaqaldiraq.
...Meni go'yo yoshlik chaqirardi,
Meni chorlab yangrardi qo'shiq.

Uyda yoshligini eslab xayolchan o'tirgan shoir e'tiborini derazani chertib yoqqan yomg'iru ko'kda guldiragan momaqaldiraq o'ziga jalb qiladi. Shu chog' tashqaridagi bolalarning qiy-chuvi uning yodiga bolaligini tushiradi va shoir xuddi bola misol, hatto bola bo'lib tashqariga otiladi. Shu lahzada u o'zini haqiqatdan ham xuddi boladek his qiladi. She'r ayni lahzada tug'iladi va uni oliy qadriyat sifatida tarannum etadi.

Uchinchisi – fikrga asoslangan, u yoki bu mushohadani e'tirof etishga oshiqqan she'riyatdir:

Insonlikning ma'nosi o'zgardi,
Olamning joziba qonuni yanglig':
Qo'shnilar umrini qisqartar darding,
Baxting ham birovning baxtiga bog'liq.
Har bir aza qisman mening azam,
Kimniki, deb so'rab bo'lmaydi!
Yolg'iz yashamaydi dunyoda odam,
O'lsa ham bir o'zi o'lmaydi.

Inson – tabiatning uzviy bir qismi, degan aksiomanoma gap bor. Qolaversa, biz jamiyatning ham ajralmas tarkibiy bo'lagimiz. Aslida mana shu oddiy haqiqatni tushunib etish va uni haqiqatan ham tushunib etganchalik yashashning o'zi, nafsilamrini aytganda, ulkan qahramonlik, matonat namunasidir. Shoir yuqoridagi sakkiz qatorda ana shundan bahs yuritayotir: men tabiatu jamiyatning, atrofda yashayotgan odamlarning bir parchasiman. Ularning azasi ham, to'yi ham aylanib kelib alaloqibatda mening hayotimda in'ikos topadi, degan umuminsoniy fikrni ilgari surayotir.

Atoqli shoirimiz Asqad Muxtor ijodidan olingan uch parcha tahlili shundan dalolat beradiki, lirik kechinmaning she'rga munosabati ko'p qatlamli hamda murakkabdir.

Agarda diqqat bilan kuzatilsa, mavjud barcha she'rlarni ikki katta qatlamga ajratish mumkin:

- poetik g'oya va tuyg'ular ifodasida fikriy umumlashmalar etakchilik qiladigan she'rlar;

- poetik g'oya hamda kechinma ifodasida asosan shoir tuyg'usi, kechinmasining ustunligi seziladigan badiiyat namunalari.

Ana shu holatdan biz tayanch nuqta sifatida foydalandik. Avvalo shuni tan olish joizki, dunyoda qancha she'r, shoir bo'lsa, lirik kechinmani ifodalashning ham shuncha usuli, yo'li mavjud. Bu holat lirik kechinmaning tabiatidan kelib chiqadi, u har bir ijodkorda, she'r tadrijida o'ziga xos kechadi. Ammo barcha usul va yo'llardagi umumiy tomonlarni hisobga olib ajratilsa, ularni ma'lum guruhlarga ajratish imkoniyati tug'iladi.

Ana shulardan kelib chiqqan holda biz lirik kechinmani she'rda bevosita yoxud bilvosita ifodalashning asosan to'rt yo'nalishini belgiladik:

She'rning asosiy poetik g'oyasini ifodalaydigan biron-bir obraz orqali. Mazkur o'rinda timsoliy ifoda mutlaq hukmronlikka erishib, tuyg'uni tashkil etish, ehtiros koordinatalarini belgilash, taassurotlar hajmini uyushtirish hamda tartibga solish singari badiiy vazifadoshlikni iste'foda etadi:

O'sayotgan

Kuchli daraxtman,

Shoxlarida pishar so'zlarim,

O'ychan kuzak kelguvchi yo'lga.

Ikki tog'day boqar ko'zlarim.

Shavkat Rahmonning «Odamdaraxt» deya nomlanadigan she'ri «daraxt» poetik obrazi tavsifiga bag'ishlangan. Badiiy turtki (o'ychan kuzak-ikki tog'-

pishayotgan soʻzlar) kalit-obrazning ruhiy manzaralarini sifatlaydi. Ijodiy yaxlitlik mantiqiy aloqadorlik boʻlaklarini boshqaradi. Shu tariqa, «kuchli daraxt» (katta daraxt emas!) timsolidagi orzu-istaklar hayotga «ikki togʻday» ulugʻvor nigoh bilan boqadi. Chunki unda mustahkam iroda mavjud! Alaloqibat, «shoxlarida pishar soʻzlar» shundan dalolat beradi.

1. Sheʼrning etakchi poetik mazmunini belgilovchi kechinma orqali. Ushbu nuqtada kechinma zalvori obraz aniqligini taʼmin etadi hamda timsoliy munosabatni shakllantiradi. Mazkur holatda har bir poetik tafsil, obraz va ramz nisbiy mustaqillikka erishadi hamda ular orasida teng hamkorlik yuzaga keladi:

Taxtlar quladi,
Toptaldi tojlar,
Xudolar yiqildi yuz tuban.
Oʻzligin tanidi muhtojlar,
Qitʼalar uygʻondi uyqudan.

Lirik ifoda obrazni emas, balki poetik shtrixlarning inson ruhiyatiga oʻtkazgan bosimi vositasida yuzaga kelgan kechinma ustuvorligini birlamchi oʻringa koʻtaradi. Taxtlarning qulashi, toptalgan tojlar, yuz tuban yiqilgan xudolar, oʻzligini taniyotgan muhtojlar hamda uyqudan uygʻongan qitʼalar har biri oʻzicha va ayni paytda umumiy mohiyatni ipga tizgandek gavdalantiradi. Tabiiyki, shoirni qudratga keltirgan kuch – adolatsizlik, zulm, qabohat hamda razolat oʻchogʻidir. Dil izhori, toʻgʻrirogʻi, achchiq iqromnoma zamirida kechinma oʻq ildizi – chorasizlik qiynogʻi suvrati va iztirobi namoyon boʻladi.

2. Poetik peyzaj yoxud poetik vaziyat tasviri orqali. Mazkur oʻrinda asosiy urgʻu tasvir tiniqligiga beriladi. Badiiy mohiyatning namoyon boʻlish tarzi manzaraning ruhiy holat bilan muqobillik kasb etishidan oziqlanadi. Oʻz navbatida kechinma tabiati psixologik vaziyatni shakllantiradi. Tabiiyki, bu shamoyilda qahramon kayfiyatidagi evrilishlar mushohada markaziga koʻtariladi hamda materiya qiymati estetik nuqtai nazardan qayta baholanadi. Aniqrogʻi, bu turkumda har bir jism oʻzida yangicha badiiy yuk tashiydi:

Pastda ko'klam ochar edi barg,
Pastda kezinardi sur bulut.
Pastda sho'ng'ib bo'ldi juvonmarg –
Uchayotib o'q edi burgut.

Burgut – yuksakliklar, kengliklar, osmonlar farzandi. U lojuvard samo og'ushida emin-erkin chappor urib yurgan edi. «Ne falokat uni tortdi past». Sur bulutlar chalg'itdimi, pastlikdagi ko'm – ko'k yashillik oshufta etdimi, bir qur pastga sho'ng'idiyu o'q eb yiqildi. Endi, tiniq osmon uning uchun xayol etmas bir tush. Qanotlariga xas-cho'p ilashgan, chaqin ko'zlariga loy yopishgan. Olov nigohlari so'ngan. Ko'zlarida moviy kengliklar qotib qolgan. H.Xudoyberdieva poetik manzaraga katta estetik yuk ortadi. Burgut – erk, ozodlik timsoli. U mudomi parquv qanotlarini yoyib, parvozga shaylanadi. Biroq, ne ayanchki, «moviy yurtga sulton bo'lgan qush xoru xasga – kulga aylandi».

3. Poetik ohang, she'riy ritm, poetik ko'chimlar orqali. Bu turkumda shakliy mundarija mazmuniy originallik bilan uyg'unlashib, emotsional-eskpressiv ta'sirchanlikni ta'min etadigan vositaga aylanadi. Tovush, marom, jarangdorlik, ravon ifoda uslubi va musiqiylik kitobxon hissiyotini uyg'otadigan hamda ilk tuyg'u – kechinma tabiatini belgilaydigan sifat ko'rsatkichini iste'fodalaydi:

Parcha-parcha bo'ldim, qaydasan?
Yuragimda jarlik, qaydasan?
Qulab tushmoqdaman, qaydasan?
Yolg'izligim – zo'rlik, qaydasan?
Parcha-parcha bo'ldim, qaydasan?

Xalqona ohang va ravon ifoda usulida bitilgan misralarda ichki ixtilof seziladi. San'at ikki olam – ijtimoiy va ruhiy qutblar chegarasida kechadigan murakkab jarayondir. Iztirob-kayfiyat ildizini aynan zamindan, jamiyatdan izlash to'g'riroq bo'ladi. Chunki tashqi muhit ta'siri hamda tajovuzi ijodkorning ko'ngil mustaqilligiga rahna soladi. Ayni vaqtda, e'tiqod tanholikdagina o'z

mohiyatiga erishadi. Uning «parcha-parcha bo‘lishi», «yurakda jarlik» hosilasi ulkan ruhoniyl fojealardan darak berayotgandek... Zotan, hayotiy qamrov darajasi «qulab tushish»ga, turmush ikir-chikirlari bilan o‘ralashib qolishga zamin hozirlaydi.

Shavkat Rahmon qalbidan to‘kilgan tuyg‘ular silsilasi og‘ir va shiddatkor. Barmoq vaznining fusunkor ifodasi hamda musiqiy tabiati o‘zining o‘ynoqiligi va soddaligi bilan tezda kitobxonni rom etadi. Zero, istak hamisha go‘zal va ezgulikka daxldorlik kasb etadi. Har qanday kechinma dard bag‘ridan sizib chiqadi hamda bevosita yurakka kirib boraveradi.

Yuqorida sanalgan usullarning birortasini eng ma‘qul usul sifatida ko‘rsatish mumkin emas. Chunki she‘r badiiyatini kechinmani ifodalash yo‘sini emas, balki shoirning ijodiy mahorati belgilaydi. Aynan mazkur vositalarni maqsadning yagonaligi birlashtirib turadi. Vaholanki, tasvir shaklida poetik g‘oyani tasavvurga etkazib berish asosiy mezondir.

Lirik kechinmani biron-bir etakchi obraz orqali ifodalash usulida yozilgan asarlar she‘riyatning asosiy qtsmini tashkil etadi. Bu an‘anaviy shakl o‘zining soddaligi hamda o‘ng‘ayligi xalq orasida mashhur. Ularning ko‘pi asosiy badiiy mazmun yuklangan obraz nomi bilan ataladi hamda kechinma ifodasida fikriy umumlashmalarning ustun turishi bu taxlitda bitilgan she‘rlarning sifat ko‘rsatkichi hisoblanadi. Kechinma ifodasining ushbu usuli Iqbol Mirzoning «Ota nidosi» she‘rida yorqin aks etgan. Unda Ota obrazi shoir kechinmalari ifodasi uchun vosita vazifasini bajargan.

She‘rda kechinmaning obrazini yaratishga asoslangan usul so‘nggi yillarda ayniqsa kengayib bormoqda. Bu taxlitdagi she‘rlarda barcha ijodiy unsurlar shoir kechinmasi obrazini yaratishga, uni o‘quvchi tasavvurida to‘liq yig‘ishga yo‘naltiriladi. Asardagi poetik obrazlar mustaqil, ma‘no salmog‘iga ega bo‘lsa-da, kechinma obrazining biron-bir qirrasini ochib berishga xizmat qiladi. Bunda tuyg‘u she‘r badiiy mazmunining markazida turadi. Agar ifoda jarayonida hissiy va aqliy takomil uyg‘unlikka erishsa, betakror poetik butunlik maydonga

keladi. Ayni paytda, hissiy idrok ustuvorligi bu yanglig‘ izlanishlarda tasvir madaniyatini mavhumlashtirib-murakkablashtirib yuboradi. Lirik kechinma ifodasining mazkur shakli A.Qutbiddinning «Sog‘inch» va B.Ro‘zimuhammadning «Tavallud topganim» deya boshlanadigan she’rlarga xos ustuvor xususiyatdir.

Lirik kechinma ifodasida peyzaj va poetik sharoit tasviri etakchilik qiluvchi she’rlar ham she’riyatimizda ustuvorlik qiladi. Shoir o‘z kechinmasidan ko‘ra o‘sha tuyg‘ularga sabab bo‘lgan joy, narsalar, tashqi vaziyat, sharoit tasvirini berayotganga o‘xshab ko‘rinadi: fakat onda-sonda ijodkor kechinmasi, botiniy dunyosi bilan bog‘liq so‘z yoki obrazlarni uchratamiz. Aslida ana shu yuzakilik bag‘rida yangi badiiy mazmun qaror topadi. Aynan lirik peyzaj tarkibiga poetik voqelik, vaziyat tasvirini ham kiritish mumkin. Chunki she’r tug‘ilayotgan badiiy voqelikdagi har bir jism she’riyat qonuniyatlari asosida qaytadan baholanadi, yashaydi, o‘zining yangi qirralarini namoyon qiladi. Lirik peyzaj va lirik kechinma o‘zaro munosabati H.Xudoyberdievaning «Qushlar ketgach...» deya boshlanadigan she’rida yaqqolroq namoyon bo‘ladi:

...Qushlar ketgach ranglari somon bo‘lar daraxtning
Aftoda, yaproqlarin to‘kib qolar yalang‘och.
Qiyin bo‘lar ajralmoq biri – birini suysa –
Qiyin ajralganlarning zavolini ko‘rgaysan.
Qush, daraxtki shunchalar bir-biri uchun kuysa,
Yo rab, kuzda insonga o‘zing toqat bergaysan.

Shoira lirik qahramon tabiatidagi vatanparvarlik tuyg‘usini turli xil sharoitlarda, holatlarda tadqiq etadi. Bu borada, tabiat bamisli ko‘zgu. Kuz faslida daraxtlar bargining sarg‘ayishi, qushlarning olis – olislarga – issiq o‘lkalarga uchib ketishi, daraxtlarni tark etishi holatlariga chuqur ma’nolar yuklanadi. Shartlilik vositasida tabiat holatlari bilan so‘lg‘in ranglariga insoniy munosabatlar baxsh etilayotir.

Poetik asarning ohanggi ham uning ajralmas qismi hisoblanadi. Bu usulda aksar hollarda shoir kechinmasi, lirik hayajon marom tabiatiga yuklanadi. Mazkur holatda kechinmaning mazmuniga qarab she'r ohangi tanlanadi. She'riy ohang nutq hodisasi bo'lsa-da, usiz asar mazmunini to'liq tushunish, shoir tuyg'usini his qilish qiyin: «She'riy ritm she'r yaratuvchining his va tuyg'ularini o'ziga xos bir tarzda ifodalashga yordam beruvchi nutq hodisasidir».¹

Darhaqiqat, ritm, marom va musiqiylik tuyg'u ta'sirchanligini ta'min etadigan yordamchi vositalardir. Ba'zan mazkur tushunchalar she'r estetik markazini boshqarib, ijodiy alohidalik sifatini namoyon qiladigan poetik unsurga aylanadi. Qofiya, tovush, mantiqiy ta'kid va signal joylashuvlari lirik kechinma tabiatida badiiy butunlikka erishadi:

Qadim ona bu tuproq
Turkiston bir, vatan bir.
Bizga jondan azizroq,
Turkiston bir, vatan bir.

Misralarning o'ynoqi ohanggi va barmoq tizimining ravon ifoda usuli E.Vohidovning «Turkiston bir, vatan bir» she'rida tuyg'uni mavjlantirib turadi. Bir qarashda, manzuma faxriya shaklida jaranglayotgandek taassurot uyg'otadi. Biroq asar qatida yuksak umuminsoniy mohiyat yotadi. «Al-Beruniy yodi bor, Yassaviy faryodi bor» bu qadim yurt ajdodlarimiz qonidan paydo bo'lgan. Chunki mazkur tuyg'u «Farobiy cholg'usida, Navoiy orzusida» voyaga etgan. «Shoh Bobur qayg'usida» shakllangan Vatan qanchadan-qancha fotihlarga «xomtalash bo'lgan...»

Poetik obrazlar asosan she'r kontekstida, ba'zida undan tashqarida ham shoir kechinmasining qaysidir jihatini qayd etish, bo'rttirishga xizmat qiladi. Abdulla Oripovning sevimli poetik obrazlaridan biri yaproq, barg, xazon hisoblanadi. Bu obraz ko'pincha shoirga inson umrining o'tkinchiligi, yoshlik va keksalik orasidagi masofa yaqinligi haqida uqtirayotganday:

¹ Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. Hotamov N., Sarimsoqov B. tahriri - T.: O'qituvchi, 1983. 275-bet.

Bugun bosh ustringda yashnagan yaproq
Shovullab to'kilar erta poyingga.
Bu uchqur yo'lovchi solmaydi quloq
Sening iltimosing, sening fe'lingga.

Shoirning aksar izlanishlarida mazkur timsollar lirik qahramon qiyofasidagi o'ychanlik, tushkun kayfiyatni ifodalashga xizmat qiladi. Hayotning qonuniyatlari shunday: «bugun bosh ustringda yashnagan yaproq» alaloqibat «shovullab to'kilar erta poyingga». Bamisli «uchqur yo'lovchi» - turmush oqimi inson hoxishi bilan hisoblashmaydi. Zero, istak hamisha imkondan yuqori turgan. Shunday ekan, ezgu a'mol va yaxshi amallargina odamzot ulug'vorligini bezab turadi. Faqat va faqat shu yupanchgina shoir ko'ngil dunyosidagi bo'shliqlarni to'ldirib turadi. Zotan, ijodkor yuksak ma'naviyat va odob-axloq jarchisi sanaladi. She'r ilhomi Olloh inoyati – g'ayb marhamatining tuyg'u-ehtiros-kechinmalar, o'y-fikr-xayollar shaklidagi betakror ko'rinishidir. She'r zahmati kimlar uchundir adoqsiz qiynoqlar silsilasi, kimlar uchundir zavq-shavq, rag'bat manbaidir. Va bundan qat'iy nazar, ijod qalb amri va inson irodasini namoyon etadigan sirli-sehrli mohiyatdir:

Qadriga etmaymiz bor naqd ketadir,
Ko'zi yoshga to'lib chin baxt ketadir.
Yorab, odamning-ku oyoqlari bor
Ranglari sarg'ayib daraxt ketadir.

Sarg'aygan daraxt ohista yurib ketayapti. So'nggi yaproqlar, so'nggi qushlar vido girdobida. Daraxt to'xtadi, o'girildi, kim, nima ko'rindi? Hazrat yolg'izlik va g'ovaklar... H.Xudoyberdieva she'riyatidagi yolg'izlik, sukunat – bu holatlar ifodasigina emas. Ular ramziy mohiyatga intiladi. Ular qayg'uli kayfiyatdan, hijron azoblaridan ko'ra teranroq mazmunga ega. Alamli ayriliqdan fig'on chekishi, firoqdan yurak qatlariga qon silqishi boisi shundan.

«Ijodkorning va ayniqsa, lirik shoirning dardi, bu o'zgacha, shaxsiy va xususiy, tor doiradan chiqib ketgan dard. Ijodkor o'z dardi orqali o'zgalarning

dardlarini ham ifodalaydi. U ko‘proq boshqalarning dardlarini o‘z dardiga aylantirgan, boshqalarga qaraganda umumga nisbatan darddoshlik tuyg‘usi o‘ta rivojlangan va o‘z san‘ati, jonbaxsh, shifobaxsh so‘zi bilan inson dardlarini engillatishga chorlangan hamda shuning ulkan mas‘uliyatini yaxshi anglagan shaxs. Dardlar bu olamda qarama-qarshiliklardan tug‘iladi. Ular ziddiyatlarning natijasi. She‘r ziddiyatlarning keskin dramatizmini aks ettiradi. Dramatik taranglik esa – she‘rning dardlaridir»¹, - deb yozadi mashhur adabiyotshunos I.G‘afurov. Darhaqiqat, she‘r – qalb tug‘yoni, u har xil ta‘riflardan kengroq, rang-barangroq, boyroq, ranginroq bo‘lgani bilan ham jozibalidir. Ammo eng zo‘r tavsiflar ham nazmning butun sir-sinoati, qobiliyati, ta‘sir doirasini izohlab bera olmaydi. Chunki ta‘riflar she‘riyatning umumiy qonuniyatlarinigirna qamrab oladi. To‘g‘rirog‘i, she‘r inson psixologiyasi, inson ichki kechinmalari dunyosining eng nozik nuqtalari bilan bog‘liq bo‘lganligidan hech qachon ta‘riflar ichiga sig‘maydi. Chunki mazkur tushunchada badiiy haqiqat va hayotiy qamrov darajasi muvozanati, aql-idrok va tuyg‘u ziddiyati in‘ikos topadi.

Buyuk rus adibi F.M.Dostoevskiy yozadi: «Men to‘la realizmga amal qilgan holda insondan inson torishga intilaman... Meni psixolog deyishadi. Undaymas, men eng yuksak ma‘nodagi realistman, ya‘ni inson qalbining barcha teranliklarini aks ettiraman». Ulug‘ yozuvchi garchi o‘zining estetik qarashlari va badiiy printsiplarini aytayotgan, o‘z ijodiy metodining mohiyatini ifodalayotgan bo‘lsa-da, bu ajoyib fikr keng ma‘noda badiiy adabiyotning hamma janrlari, barcha turlari uchun benihoya muhimdir. Adabiyotning bosh maqsadi ham inson ruhiy dunyosi, ichki olamining teran haqiqatlarini gavdalantira olishi vositasida namoyon bo‘ladi. Insondan insonlikni topib tasvirlash, uning qalb olamiga chuqur kirib borish she‘riyatning birinchi darajali vazifasidir:

¹ G‘afurov I. Lirikaning yuragi. – T.: Adabiyot va san‘at, 1984. 124-bet.

Bog‘lar qiyg‘os gulda yaxlit bir chaman,
Har bir daraxt anvoyi bir tarovatda.
Bir kaft bog‘ mehnati hosilga vatan,
O‘zga ko‘rk, o‘zga rang har bir daraxtda.

Yaxshi she‘r doimo ramz, majoz alomati bilan omuxta bo‘ladi. Zulfiya ijodiga mansub band ham bu imkoniyatga bo‘ysundirilgan. Shoir avvalo bog‘ning (hayot ramzi!) yaxlitligini ta’kidlaydi. Bu bejiz emas, albatta! Negaki, butunlikda hikmat ko‘p. Bir daraxt tarovati bog‘ bo‘la olmaydi. Bog‘ bo‘lish uchun daraxtlar jipsligi shart.

Mazkur bob yuzasidan kuzatishlar bizga quyidagi hukm-xulosalarga kelishga imkoniyat yaratadi:

- har qanday poetik asar lirik kechinma asosida yoziladi, shu bois she‘rdagi har bir unsur kechinmani ifodalashga xizmat qiladi. Binobarin, uni ifodalashning minglab usul va yo‘llari mavjud, ammo ularning barchasi besh – o‘nta shakl ostida birlashadi;

- muayyan lirik kechinmaning ifodasi mukammal poetik asarga aylana olishi uchun o‘sha kechinma shoir ma’naviy-ruhiy hayotining bir qismiga aylanishi kerak. Kechinma ifodasida asosan quyidagi ikki usul etakchilik qiladi:

- a) poetik matnda aks etuvchi kechinmaning umumiy obrazi orqali;
- b) etakchi lirik obrazlar orqali.

XX asr adog‘i XX1 asr avvalidagi aksar ijodkorlar izlanishlarida kechinmani yuqoridagi ikki shaklda ifodalash madaniyati ustuvorlik qiladi.

Poetik asarning pirovard vazifasi voqelikning badiiylashgan mohiyatiga nisbatan o‘quvchi qalbida erkin ruhiy munosabatni uyg‘otish va rivojlantirishdan iborat. Bu ongli munosabat mushtariy ko‘nglida uyg‘ongan tuyg‘u, hayajon, kechinmalar tug‘yonining inson aqli, ma’naviy-ruhiy qadriyatlari, estetik olamiga uzluksiz ta’siri shamoyilida sodir bo‘ladi hamda murakkablashib boradi.

Umuman, lirik hissiyot va she'r munosabati xususiylik hamda umumiylik aloqadorligiga borib taqaladi. Aniqrog'i, mazkur ikki tushuncha hayotiy aqida va timsoliy ifoda madaniyatining o'zaro bog'liqligini mantiqiy jihatdan ta'min etadi.

II BOB

LIRIK KECHINMA VA BADIY IFODA

Dunyoda hech bir materiya o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Mazkur anglangan haqiqatni she'rga nisbatan qo'llasak, uning ham o'z-o'zicha dunyoga kelmasligi ayon bo'ladi. Xo'sh, she'r ortida nima bor va u qanday tug'iladi? Shu narsa ma'lum bo'ldiki, she'r qanday voqea-hodisa ostida yozilmasin, ma'lum tuyg'u va kechinma ta'sirida dunyoga kelar va ularni poetik ifoda qilar ekan.

Lirik kechinma tushunchasi nisbatan yangi istiloh sanalsa-da, uning asosiy jihatlari to'g'risida qadimdan shakllangan estetik qarashlar mavjud. Jumladan, mashhur yunon faylasufi Aristotel' ijod mohiyatini to'rtta xususiyat (maqsadga muvofiqlik-aniqlik-uyg'unlik-o'ziga xoslik) belgilab berishiga urg'u bergandi. Chunki poetik asar birdan dunyoga kelmaydi. Tuyg'u kechinmaga aylanishi uchun bir nechta «bosqich»ni bosib o'tadi: Chinakam lirika boshqa har qanday haqiqiy poeziya kabi inson yuragining chinakam mazmunini ifoda qilib berishi kerak. Biroq hamma narsa va hatto eng xolis, eng predmetli va eng moddiy hodisalar ham lirik mundarija kasb etarkan, shaxsan his qilingan, ko'ngil ko'zgusida yo'g'rilgan, tasavvur qilingan hamda o'ylangan holda gavdalanmogi kerak. Bir tomondan, shoir ijodkor sub'ektiga muvofiq so'zlar topishi kerak bo'lsa, ikkinchi tomondan, u ohang, qofiya, janr kabi ko'proq she'rning shakliga tegishli bo'lgan vosita-usullar bilan ish ko'rishi shart.

Atama adabiyotshunoslikda XX asrning o'ttizinchi yillaridan ishlatila boshlandi va inson tuyg'usi, o'y-xayollari majmui ma'nosini bildirib keldi. «Kechinma – lirikaning muhim mezoni bo'lib, ijodni harakatga keltiruvchi ilk dard va uning hosilasidan iborat», - deb yozadi taniqli adabiyotshunos-olim Olim Sharafiddinov. Rus shoiri V.Mayakovskiy esa «kechinma tabiatida musiqa, ohang va rang uyg'unlashib ketishi»ni alohida qayd qiladi. Rus munaqqidi M.Polyakov kechinma zalvorining tuyg'u va assotsiatsiya nisbatidan

tashkil topishini e'tirof etadi. Keltirilgan ta'riflar rang-barangligining o'ziyiq lirik kechinma tabiatining murakkabligidan – ko'p qatlamliligidan dalolat beradi.

Yuqoridagi nazariy mulohazalardan kelib chiqqan holda she'r ortida turgan estetik hodisalar tasavvur aniqligi, tuyg'u ta'sirchanligi, taassurot haqqoniyligi va kechinma yaxlitligidantashkil topadi.

Anglashiladiki, istiloh zahirida ifoda mustaqilligi hamda tasvir tiniqligi yotadi. Zotan, ijodiy originallik badiiy xoslanganlik darajasini belgilab beradi. O'z navbatida, ichki mundarijada hissiyot va ong uyg'unlashib ketadi. Binobarin, tasavvur va taassurot orasidagi zohiriy yaqinlik muayyan ma'noda she'r negizini tashkil etadi. Shu nuqtai nazardan alohida ta'kidlash joizki, sharh tadrijini kechinma emas, balki poetik turtki – dastlabki hosila ta'minlaydi. Tashbeh qo'llanmasining ruhiy holatga munosabati qay darajada moslashuvchanlik kasb etishi lirik kechinma tabiatini izohlaydi, tartibga soladi hamda poetiklashtiradi.

Lirik kechinma tabiatining eng birinchi xususiyati uning samimiyligida namoyon bo'ladi. Tuyg'u chin bo'lmasa, asar badiiyati kemptikligicha qoladi. Bu holat she'r suratidan siyratiga o'tadi. Shoir ba'zi o'rinlarda o'z qalbidagi tuyg'ular harakatini anglab etmasligi ham mumkin. Inson intellekti unutib yuborgan biror hodisa yoki holatni, ko'pincha odamzotning qalb xotirasi qayta tiklaydi:

Yana yozilmagan qancha quvonch, mung –
To'kilmay ko'ngilda yotgan tuyg'ular.
Garchand –
Hidlay desang havoning isi yo'q,
Tinglasang sasi.¹

deb kuylaydi H.Xudoyberdievaning lirik qahramoni. Satrlarning voqeiymazmuni bizga shoira qalbida nish urgan va teranlashayotgan dard-tuyg'ulari

¹ Xudoyberdieva H. Bu kunlarga etganlar bor. – T.: 1993. 466-bet.

haqida tasavvur beradi. G'ayrishuuriy ifoda originalligi ham she'riy kechmish qirralaridan biri hisoblanadi. Zero, ehtiros to'la ma'nodagi xususiy hodisadir. Shunday ekan, ijodda tasvir originalligini ob'ekt mazmuni emas, balki hissiy ta'sir yo'nalishi belgilab beradi.

Lirik kechinma tabiatining namoyon bo'lish tarzini quyidagi xususiyatlar belgilab beradi:

Birinchidan, san'atkor ko'ngil dunyosida voyaga etayotgan orzu-istaklar bilan tashqi muhit realligi orasida ziddiyat paydo bo'ladi. Mazkur ixtilof ko'lami hayotiy umumlashma yoki timsol aniqligi misolida namoyon bo'lishi mumkin. Eng muhimi, bu o'rinda dardning turmush tafsilotlariga maksimal darajada yaqinligi asosiy me'yor hisoblanadi. Aniqrog'i, ichki mushtaraklik estetik jozibani yuzaga chiqaradi:

Taqdir saroyiga farrosh tutindim,
Dilimga suv sepib g'amni supirdim.
Kelmadi mehmon-ey,
Kelmadi mehmon.

Aziz Said ijodidan keltirilgan parchada xohish va imkon o'zaro to'qnashadi. She'rning har bir komponenti – so'z, konstruktsiya, misra, tashbeh, istiora – barcha-barchasi shoir qismatidan aks-sado bo'lib chiqayotgan mahzun, ayni paytda dilrabo nidoning tabiatiga muvofiq jaranglaydi, shoir niyatiga ajoyib tarzda singishib ketadi, uning a'lo darajada ro'yobga chiqishini ta'min etadi. She'r masnaviy janrida yozilgandek taassurot uyg'otsa-da, unda mumtoz shakl qoidalariga qat'iy rioya qilinmagan. Ilinjning hayot zarbalariga urilishi kechinma yaxlitligini belgilab beradi.

Ikkinchidan, tabiatdagi dialektik uyg'unlik ham ijodkor zavq-shavqini uyg'otadigan, estetik jihatdan mushtaraklik hosil qiladigan vositaga aylanishi mumkin. Mazkur hamohanglik ehtirosning bosqichma-bosqich quyuqlashishiga zamin hozirlab, tuyg'u va ong o'rtasidagi zinapoya vazifasini bajaradi:

...Endi safsar kechalarda oq,
mash'alalar tutib, ulug'vor.
Kengliklarda kezar chiroyli
kunduzlarni axtarib bahor.

Shavkat Rahmon qalamiga mansub satrlarda manzara va hissiyotning majoziy uyg'unlashuvi suvratlangan. She'r ruhiy holatning inson tasavvuriga o'tkazgan shuuriy bosimi hosilasi sifatida maydonga kelgan. Tabiatni moddiylashtirishga moyillik shoir kechinmalarini ifodalash vositasiga aylangan. E'tiborli jihati, kayfiyat chizgisi bahor jozib nafosatiga hamohang-hamjins-hamnafaslikda ayonlashadi. Rus adabiyotshunosligida kechinmani obraz shaklida talqin etish tamoyili ko'zga tashlanadi: Lirik obraz – bu obraz kechinmadir. Obrazda aks etgan, ifodalangan kechinma etakchi o'rinda turgan she'rlar adabiyotda ko'pchilikni tashkil etsa-da, kechinma nafaqat obraz, balki tuyg'u, o'y, fikr, ohang, ritm shaklida ham shoir ko'nglidan o'tadi. Shu o'rinda bir qiziqarli holatga duch kelamiz. Lirik kechinma va she'riyat munosabati, badiiy asar va pafos munosabatiga o'xshab ketadi. Badiiy asarning pafosi uning umumiy ruhini bildirsa, kechinma she'rdagi asosiy g'oya singdirilgan tuyg'uni ifodalab beradi. Lirik kechinma tuyg'uga nisbatan keng tushunchadir. Aniqrog'i, kechinma tuyg'uni kamrab oladi, ammo har qanday tuyg'u kechinma bo'lolmaydi. Shoir she'rga asos bo'ladigan kechinmani yuzlab hislar orasidan tanlab, ajratib oladi. Taqsimotning shartlaridan biri kechinmaning estetik tomoni – go'zalligidir. Ayni paytda, mazmuniy ifoda etakchi ahamiyat kasb etmaydi. Chunki kechinma asl holatda yoqishi yoki yoqmasligidan qat'iy nazar, san'at asarida qayta tiklanar ekan, muqarrar badiiy zavq manbaiga aylanadi, ya'ni albatta yoqimlilik kasb etadi. Kechinma tanlashning yana bir sharti esa o'sha tuyg'uni istagi shoir uchun ijodkor va inson sifatida zaruratga aylanishi shart: «Umuman, she'riyat kishi qalbiga, eng avvalo, ruhiy tashnalik, cheksiz ehtiyoj, ajib bir sehr tariqasida kirib keladi, shekilli. Shuning uchun men she'rni ehtiyoj farzandi, deb atayman.

... Bu ehtiyoj chinakam shoirni umr bo'yi ta'qib etadi»¹

Poetik asarning asosi bo'lgan lirik kechinma eng intim mazmundagi hislar haqida so'zlasa-da, u hamisha ijtimoiy ma'no kasb etadi, chunki shoir hech qachon o'zi uchun she'r yozmaydi. O'quvchisiz she'r – she'r bo'lmaydi.

Lirik kechinma, obrazdan farqli ravishda, o'z tabiatidan kelib chiqib, ko'proq she'rning tug'ilishi va uning umumiy mazmuni, hissiy bo'yog'iga ta'sir etadi. Kechinma shoirning ko'nglidan o'tib, asosan she'rning ruhida, ohangida yashaydi.

Poetik asarda ifodalangan kechinma kichik she'rlarda yaxlit, yagona bo'lishi, yirik hajmli she'rlarda kechinmaning mazmuni bir necha marotaba o'zgarib, almashinib turishini, aytish mumkin bo'lsa, kechinma dinamikasini kuzatishimiz mumkin. Masalan, B.Ro'zimuhammadning «Qiyofasiz odam» she'rida mazkur holatni kuzatish mumkin. Demak, kechinmaning tdarijiiy takomili ham uning tabiatidagi qirralardan biri ekan.

Lirikaning birinchi belgisi kechinmadir. Kechinma esa nafaqat tuyg'u, his, xayol yoki fikr, o'y, tasavvur va ularning qorishig'i, balki bir vaqtning o'zida ularning hammasi va hech biri emas. Bugunga qadar kechinma obraz, badiiy fikr tarzida talqin etildi. Qisqasi, lirik poeziyaning asosini har qanday hayajonga moyillik emas, balki o'zini so'zda ifodalagan obraz, bevosita kechinma obrazida namoyon qiluvchi emotsional tarang fikr tashkil etadi.

Poetik asarning markazida lirik kechinma turadi. U bizga shoir estetik ideali suvratini chizadi hamda shoir ma'naviyatining mazmuni to'g'risida ong dalolatnomasini shakllantiradi. Zero, kechinma – lirik poeziyaning harakatlantiruvchi kuchi va asosi, uning mohiyatidir.

Voqeaband she'rlarda kechinmaning umumiy obrazi asosan shoir shaxsi orqali namoyon bo'ladi. Poetik obrazlar bu taxlitdagi she'rlarda statik shaklda bo'lib, poetik g'oya she'r kontekstiga yashiringan bo'ladi. Ayniqsa keyingi yillarda she'rning bu shakli urfga kirdi. Masalan, shoir kechinmasining o'zi

¹ Oripov A. Ehtiyoj farzandi. – T.: Yosh gvardiya, 1988. 19-bet.

to'g'risida bevosita hech nima demaydi, balki lirik manzaraning yoki ruhiy holatning o'zini berish bilan cheklanadi. Bunda kechinmaga sabab bo'lgan hayot hodisasi u kechgan joy tasviri, unga aloqador jismlarning o'zi va ular orasidagi ko'zga ko'rinmas aloqadan biz biz assotsiativ boglanish – shoir tuyg'usi, ko'ngil kechinmasi to'g'risida taassurot olamiz. A.Qutbiddin, U.Azim, B.Ro'zimuhammad, Faxriyor, A.Said ijodlarida yuqoridagi taxlitdagi she'rlar ko'plab uchraydi.

Hayot lirikaning suv tomiridir. «Lirik she'rda kechinma ko'pincha hayotiy hodisalar yoki predmetlar bilan bog'liq holda ifodalanadi. Bunday hollarda o'sha predmetlar yoki hodisalar shoir kechinmalariga turtki bo'lgan omil bo'lishidan tashqari, she'rning asosiy ma'naviy estetik funksiyasini ifodalovchi poetik obrazga ham aylanadi»¹. Kechinma har bir shoirda o'ziga xos kechadi. Shu sabab bir voqea-hodisaning o'zi turli mazmunli kechinmalar tug'dirish yoki lirik voqelikka yuzaki qaraganda aloqasi bo'lmagan favkulodda poetik obrazlarda aks etishi ham mumkin.

Lirik kechinma «ikki qism»dan tashkil topadi. Birinchisi – shoir poetik olamiga tashqi faktorlarning turli mazmundagi ta'siri natijasida ijodkor ko'nglida tug'ilgan tuyg'ular yoki fikrlar tug'yoni; ikkinchisi – shu tuyg'u va fikrlarning shoir ma'naviy, ruhiy, estetik mezonlari prizmasidan o'tib, o'sha poetik vaziyat, voqea-hodisa, holatga nisbatan konkret she'riy shaklda bildirilgan obrazli sub'ektiv munosabatdir. Biz tavsiya etgan bunday ajratish nisbiy bo'lgani holda lirik kechinmaning xususiyatlarini alohida o'rganish imkoniyatini yaratadi. Ayni paytda taqsimotdagi ikki jihat yaxlitligi she'rni ifodalaydi. Tashbeh bilan aytganda, matn, uning barcha qismlari she'rning tanasini tashkil qilsa, kechinma – tuyg'uga yo'g'rilgan fikr va hissiyot uning joni, ruhi, ichki yolqinidir. Mana shundan kelib chiqqan holda biz lirik kechinmaga quyidagicha ta'rif beramiz. Voqelikning shoir qalbiga ma'lum ta'siri natijasida tug'ilgan tuyg'u – lirik kechinmadir. Ushbu ta'rif

¹ Sharafiddinov O. Hayot bilan hamnafas. – T.: Yosh gvardiya, 1983. 208 –bet.

mukammallikka da'vogar emas, ammo u atamaga berilgan tavsiflarni har tomonlama o'rganish, tahlil qilish hamda jamlash natijasida yuzaga keldi.

Lirik kechinmaning o'ziga xosligi shundaki, doimo she'r markazida ijodkor shaxsi turadi. Jamiki voqea-hodisalar uning ma'naviy-intellektual sajiya-salohiyati orqali idrok etiladi, ifodalanadi. Biroq mushohadalarning xoslanganlik darajasi shaxs, millat, Vatan manfaatlari bilan, bashariy qadriyatlar tuyg'usi ila yo'g'rilgani bois ijtimoiy mazmun kasb etadi.

Tuyg'u-kechinma silsilasini yaratish badiiylikning muhim mezonini hisoblanadi. Tabiat ranglari, bo'yoqlar bilan lirik qahramon ruhoniyyatida kechayotgan hissiyot evrilishlari o'rtasidagi mutanosiblik, hamohanglik kechinma dinamikasini belgilab beradi. Aniqrog'i, voqelikning jonli, hayotiy asoslari ijod psixologiyasiga qadar murakkab jarayonni ifodalaydi. Tasvirdan tahlilga o'tish ijod ruhiyati miqyoslarini kengaytiradi. Shu tariqa poetik ifoda madaniyatidagi har bir konstruktsiya mustaqil adabiy birlik sifatida namoyon bo'ladi:

Har gap o'tsa, mendan o'tdi, sizda gunoh yo'q, begim,

O'zim sizni otdim yo rab, so'zdan yasab o'q, begim.

O'yladimki, sizning bu ishq kulday so'nib to'zgandir,

Bugun nechun yuragimda laxcha-laxcha cho'g', begim.

Lirik qahramonning iztirobga to'la dil nidolari publitsistik nutq ila nafis tuyg'ularning harir ipaklariga yo'g'rilgan. Unda o'kinch, afsus-nadomat hislari g'urur tuyg'usi bilan sug'orilgan. Turkona go'zal tilda «begim» deya kuylash yolg'iz Halima Xudoyberdieva lirik qahramoni lafziga xos. Unda ayol qalbining kechinmalari tarovati, hijron daqiqalaridagi hazin ohanglar, nozik sevgini qadrlay olmagan ayolning bardoshli umri, olov sevgisidan sarxush dilning mahzun lahzalari mujassam lirik qahramon lafzidagi xalqona ohanglarda bo'y ko'rsatadi.

Ayni paytda, ba'zi yosh ijodkorlarimiz izlanishlarida so'zga zeb berish, chiroyli va ohangdosh kalimalarga moyillik natijasida she'rning tug'ilishiga

sabab bo'lgan ilk tuyg'u – darddan uzoqlashish ko'zga tashlanadi. Shu boisdan bo'lsa kerak, ba'zi she'rlar zo'rma-zo'raki, jiddiy bir yuksiz, faqat she'r yasashu mahoratni namoyish qilish uchungina yozilgandek taassurot qoldiradi. Xususan, B.Ro'zimuhammad, Go'zal Begim, Faxriyor, B.Jo'raev, H.Abdinazarning ba'zi she'rlarida shu holat kuzatiladi.

Mana, bir misol:

Kechiring, onajon,
Bugun yoninggizga bora olmadim.
Chiqay desam,
Kulcha bo'lib o'lib qopti yo'l.
Och edim besh kundan buyon –
Tanovul qilmagan
Birorta qadam.

Aziz Said qalamiga mansub she'ning birinchi bayti – poetik axborot zalvorini ifodalaydi. Ikkinchisi favqulodda tashbeh «Chiqay desam, kulcha bo'lib o'lib qopti yo'l». Qolganlari esa she'r yasash yo'lidagi urinishlardan iborat. Chunki dard quyuq emas, didga ilashmaydi. Bori ham bejirim satrlar tizish ishtiyoqi qa'riga (bejirim satrlar bag'riga emas!) g'arq bo'lgan, yo'qotilgan. Lirik qahramonning besh kundan beri onasi sari yo'lga chiqolmay, faqat xayol bilan oziqlanib, aqldan jazo olib, tasavvurida sazo etilgancha parishon bo'lishiga qaramay, ko'ngil "jiz" etmaydi. Axir, misralar har qancha ohorli kiyinib, olifta bo'lmasin, ichi – quruq. Hatto lirik qahramonning g'aflatda qolishi oqibatida botiniga kimningdir kirib, butun dunyosini parokanda etishi va u o'zining soyasiga, soyasining o'ziga aylanishi haqidagi misralar ham afsuski, hech qanday ta'sir kuchiga ega emas.

Yangi ifoda shakllarini qidirishga keragidan ortiq ruju qo'yish natijasida har qanday yaxshi she'ning o'q ildizi hisoblangan – Kechinma mavhumlashgan, hatto ba'zan «unutilgan» she'rlar Xayrullo, Go'zal Begim va P.Sodiq ijodida yanada ko'proq namoyon bo'ladi.

Hissiy aniqlik va fikriy tiniqlik lirik kechinma o'ziga xosligini belgilaydigan muhim xususiyatlardan biridir. Obrazli tarzda aytganda, ruhiy kechmish nishon. Uni to'g'ri mo'ljalga olish zaruriy ehtiyojdir. Negaki, mushohadaning tasavvuriy ifodasi va ijodiy ishlanganlik darajasi orasida muayyan ma'noda ichki aloqadorlik mavjud:

Sahar turdim, quyoshni kutdim,
Shudringlarda chaydim yuzimni.
Buloqlarga labimni tutdim,
Va borliqda ko'rdim o'zimni.

Shavkat Rahmonning yigirma uch yoshida yaratgan ijod namunasida ruhiy holat va manzara orasida lirik kechinma shakllanganligi qabarib ko'rinadi. Tong bilan lirik qahramon kayfiyati o'rtasidagi hamohanglik «quyosh», «shudring», «buloq» va «borliq» timsollari atrofida uyushadi. Demak, hissiy idrok jarayonining shakllanishi va namoyon bo'lish tarzi tasavvur aniqligi hamda estetik maqsad zalvori nisbati bilan o'lchanadi.

Demak, lirik kechinma poetik obrazga nisbatan kengroq tushuncha hisoblanadi. Negaki, unda timsoliy ifodadagi aniqlik o'rnini tasviriy mavhumlik egallaydi. Ayni paytda, mazkur istiloh ijodiy g'oyani shakllantirish hamda rivojlantirishda «xamirturush» vazifasini bajaradi. Unda hissiyotning nazariy asosi, jarayonni harakatga keltiruvchi ichki va tashqi omillar mushtarakligi, talqin va tahlil uzvining murakkabligi aks etadi. Shu ma'noda, matnning hissiy ko'lami va intellektual darajasi lirik kechinma tabiatini tartibga soladi hamda tavsiflaydi.

Har bir janrda lirik kechinma turfa xil ravishda namoyon bo'ladi. Ayni paytda, tuyg'u ifodasi poetik turning o'ziga xosliklarini ham ta'min etadi. Aniqrog'i, she'riy janrlar orasidagi tafovut poetik asarning mazmunidan ko'ra, ko'proq shakliy mundarijasiga, kompozitsion tarkibiga, badiiy maqsadiga daxldorlik kasb etadi. Vaholanki, lirik ifodaning hajmi kengaygan sari, unda ifodalanayotgan kechinma yoki kechinmalar ko'lami ham teranlashib boradi.

Xususan, gʻazal janrida kechinma tabiati ikki jihatni tavsiflaydi: fikrni bosqichma-bosqich kuchaytirish hamda mantiqiy taʼkidni urgʻulash. Dastlabki qatlamda hayot haqiqati va tasvir vositalari oʻzaro munosabati asosiy oʻringa koʻtarilsa, keyingi qismda sifat koʻrsatkichi muhim ahamiyat kasb etadi:

Shahr aro koʻzlardan oʻzga
Dilkusho maskan toray,
Unda oʻzni sen bilan
Bir jon koʻray, bir tan topay.
Necha kundir kim, yoʻqolmish
Dilda oromim, uni –
Bu kecha izlab sening
Jodu qarogʻingdan topay.

Gʻazal janrida ifodalangan kechinmalar shoirdan toʻliq anglanganlikni talab qiladi. Butun gʻazal boʻylab ijodkor kechinmasi va mushohadasining tadrijiy-mantiqiy rivoji, harakat miqyoslari kuzatiladi, oxirgi baytda esa albatta falsafiy hukm-xulosa oʻz mantiqiy echimini topishi shart. Boshqacha aytganda, oʻta anʼanaviylik mazkur sheʼriy shaklda lirik kechinma yigʻiq holda namoyon boʻladi va muayyan izchillik vositasida badiiy mohiyat kasb etadi. Aniqrogʻi, mumtoz janrda sheʼr va ruhiy kechinma tugallanadi va bu vaziyat oʻquvchiga lirik qahramonning maʼnaviy-ruhiy qadriyatlari olamining yaxlit manzarasini ilgʻash imkoniyatini beradi.

E.Vohidovning «Shahr aro...» deya ataladigan gʻazalida muhabbat mavzui tadqiq sahniga chiqadi. Shoir sharqona ifoda uslubida bitilgan shaklga murojaat qilarkan, anʼanaviy poetik ramzlar (oshiq-maʼshuqa-agʻyor) hamda ruhiy holatga bogʻliq badiiy chizgilar (tun-tong-gulshan-koʻngil-muhabbat) orasidagi munosabatni tiklashga intiladi. Lirik qahramon uchun «dilkusho maskan» topish imkondan tashqari hodisa. Negaki, uning qalbini «muhabbat otashi» yondirmoqda, taʼbir joiz boʻlsa, «vujud oʻtga chulgʻangan». Oʻz navbatida, bedorlik – oshiqning qismati. Shunga qaramasdan linj bor: «tun qorongʻusi»ni

ma'shuqa xayoli yoritmoqda. Oshiqning «Tongotarda yuzlaringni Tong kabi ravshan topay» deya e'tirofi zahirida achchiq iqrar mavjud. G'azal o'rtalarida muallifning ijodiy originallikka intilishi ko'zga tashlanadi:

Ayri til birlan riyo

Bersa menga yuz yaxshi do'st,

Do'st kerakmas, to'g'ri so'zlab

Bir halol dushman topay.

Ijodkor mumtoz adabiyotda keng ishlangan timsol (raqib-ag'yor-do'st-dushman) tabiatining yangi qirralarini inkishof etishga intiladi. Unga ko'ra, mazkur poetik ramz zamonaviy ijtimoiy salmoq bilan boyitilib, kecha, bugun va kelajak orasidagi uzviylikni ta'min etadigan mushohadaga aylanadi. Shu o'rinda ta'kidlab o'tmoq joizki, keltirilgan baytda san'atkor saktalik(kamchilik)ka yo'l qo'yadi. Bu xato ma'no takomilida jiddiy uzilish paydo bo'lishiga olib keladi. Shunga qaramasdan, g'azal markazida turadigan kechinma tabiati o'zining yorqinligi, ohorliligi hamda yangicha talqin usuli bilan kitobxon e'tiborini jalb qiladi.

Kechinmaning mazmunidan kelib chiqib, faqat musbat tuyg'ularni ifodalaydigan lirik janr – qasida hozirgi o'zbek she'riyatida ko'p uchraydi. Yuqori pafosda yoziladigan madhiyalarda qayg'uga yo'g'rilgan ruhiy kechinma ham berilishi mumkin, ammo shu mung ham she'rning umumiy g'oyasini kuchaytirishga qaratilgan bo'lib, lirik qahramon bu hisga bir lahza beriladi, xolos. Negaki, mumtoz janr tabiati ko'proq hamdu sanoni taqozo etadi. Zero, madhiyada yuksak estetik hoxish-istak hamisha badiiy markazga intiladi:

Sen balo, ham muhtalo,

Xayr ila kin, rostu riyo,

Fitnagar olam aro

Fatton o'zing, qurbon o'zing.

Goh adolat bog'ida,

Piri adovat gohida,

O'z diling dargohida

Shayton o'zing, g'ilmon o'zing.

E.Vohidovning «Inson» qasidasida ruhiy kechinma tarqoqligi ko'zga tashlanadi. Muallif odamzot tabiatiga xos xususiyatlarni tazodiy munosabatda aks ettiradi. Bu holat, bir tomondan, mushohada ijodiy mantig'ini kuchaytirs, ikkinchi tomondan, falsafiy-badiiy tahlil teranligi va kengligini ta'minlaydi. «Bu yorug' dunyo nadur? Koshonadur, vayronadur», - deya hukm chiqaradi shoir. Achchiq, lekin adolatli xulosa. Negaki, «zarrani ijod etib, Dahshat balo bunyod etib hayron bo'layotgan», «tig' bo'lib botquchi ham paykon, ham qalqon» bani bashar qismati shundan dalolat berayotgandek...

Janr xususiyatlariga ko'ra, faqat mungli kechinmalarni ifoda etadigan she'riy shakl – marsiyadir. Bunda shoir qayg'uli kechinmalarini manzuma bag'ishlagan shaxs yoxud sana bilan bog'liq voqea va tafsilotlarga suyangan holda izhor etadi. Mazkur xususiyat, bizning fikrimizcha, marsiyada ifodalangan kechinmaning chuqur falsafiy asoslanganligi hamda hatto shu holda ham shoir va kitobxon uchun badiiy zavq manbai bo'la olishida qabarib ko'rinadi:

Necha kunki yo'q oromim,

Kelolmayman hushimga.

Onajonim kechalari,

Kirib chiqar tushimga.

A.Oripovning «Onajon» marsiyasi markazida garchand Ona siymosi tursada, uning badiiy-hayotiy qamrov darajasi nihoyatda keng. She'rda iymon, e'tiqod, mehr-oqibat va diyonat tushunchalari ruhiy tafsilotlarni tartibga solib turadi hamda markazlashtiradi. Insoniyat ibtidosi hamda intihosi haqidagi o'ylar turmush tashvishlariga bog'lanib qolgan va ayni paytda, hayotiy ikir-chikirlardan zada bo'layozgan lirik qahramonning bir lahza o'zligiga qaytishga imkoniyat yaratib beradi. Estetik markazdan qizil ip bo'lib o'tadigan tuyg'u zalvoridan go'yo ko'ngil cho'kkandek... Zero, mavjud imkonsizlik, o'kinch

aralash dard tug'yoni psixologik taranglikni ushlab turadigan asosiy vosita. Dunyodagi eng aqlli jonzot hisoblanadigan inson tabiati murakkab. Uning ayanchli ahvoliga nima sabab bo'lgan: loqaydlikmi, beparvolikmi, johillikmi yoxud manfaatmi? Qahramon tiynatida paydo bo'lgan va bot-bot qiynab turadigan savol manzuma avvalidan oxirigacha ochiq qoladi. Unga omil bo'lgan jihatlarga urg'u berish balki ortiqchadir. Shunga qaramasdan, «Onajon» marsiyasida keltirilgan tuyg'u dramtizmi hamda tragizmi bizga yaxshi tanish. Misralar qatiga singdirilgan kuchli hayajon har bir qalbni larzaga solishga qodir!

Lirik kechinma ifodasida she'riyat janrlari shoirga juda keng imkoniyatlar yaratadi. Har bir muallif o'z g'oyaviy-badiiy niyati va poetik maqsadidan kelib chiqqan holda tuyg'ularni xohlagan shaklda bildirishi mumkin. Muhimi u fikr va his omuxtaligiga erisha olsa bas. Mazkur uyg'unlik esa janr tabiatiga emas, balki ijodkorning hayotiy qamrov darajasi hamda iqtidoriga bog'liq:

Shuncha ham cho'zilib ketarmi oqshom,
Zulmatmi borliqda qilgan tantana?
Yo osmon tubida qora intiqom
Kurrani etdimi quyoshdan pana?!

O.Matjon hodisani romantik ranglarga to'ldirib tahlil qila boshlaydi. Poetik xarakter tavsifi romantik yo'nalishdagi hissiyot va mushohadalarni shakllantiradi. Qon lazzatidan mast bo'lgan quzg'unlar, koinot bag'rida etilgan «qora intiqom» - albatta, kuchli romantik rang olgan tasavvuriy aniqlikni izohlaydi. Lekin shoir o'zining bu shuuriy tahlilidan qoniqmaydi. Uzun kecha qanday paydo bo'lganligini u tushuntirishga intilmaydi. Mushohadaning tig'i adolatsizlik, razolat va qabohatga yo'naltiriladi. Chunki:

Yo'q! erning o'zida hali shu qadar
Badniyat kimsalar tiklab yurar bosh,
Shularga osmonning qahri bu magar,
Shunga bir ish tashlash qilgandir quyosh?!

Misralar zalvoridan hosil bo'ladigan ruhiy kechinmaning mundarijasi keng mazmuniy aloqadorlikka asoslangan. Sodda, ayni paytda, ohori to'kilmagan tashbehlar poetik fikr tadriji bilan lirik «men» vobasta, ruhan boyib borishiga zamin hozirlaydi. U bani bashar munosabatini uzida mujassamlashtirgan badiiy timsol – markazlashgan poetik obrazni sifatlaydi. Bu taxlit xalqchil uslubning shakllanishida samimiyat hamda tabiiylikning mavqei nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi.

Halima Xudoyberdievaning «Ikki qushcha bor» she'rida baxt bilan g'am qushchalarga qiyoslanadi. Ikki qushcha – bu lirik qahramonning quvonchli va alamli kunlari. Ular har soniya hamroh. Aslida «g'am qushining rangi qop-qora». Hatto qorong'u kechalar ham uning shvvpasini ilg'ab titroqqa tushadi. Quvonch qushi tumanlar aro uchib kelganda esa «yayrab potraydi»:

Men bir ovchi noshuddan-noshud,
Bu ikki qush ham baxt, ham sho'rim.
Otdim, qaro qush bo'lmas nobud,
Oppoq qushni tutolmas to'rim...

Sharq she'riyatida, xususan, o'zbek adabiyotida qushcha erk, ozodlik timsoli sifatida barqarorlashgan. U shaxsning ham ma'naviy, ham intellektual erkinligini o'zida mujassamlashtiradi. Agar, e'tibor bersak, ana shu obraz ongimizdagi tushunchaga muayyan shakl baxsh etayotir. Demak, tushuncha - bu ibtidoiyu intihoga ega bo'lmagan, qotib qolgan, rivojlanishdan to'xtaydigan turg'un holat emas ekan. Ilk satrdagi fikr botiniy mantiq tadrijiga ko'ra badiiy g'oyaga aylanayotir. Qushcha – bu shunchaki oddiy parranda emas. U lirik qahramonni ertayu kech aslo tark etmaydigan ruhoniyl tuyg'u. Biri – g'am, ikkinchisi – quvonch.

Qushcha haqidagi tushuncha badiiy g'oyaga aylanar ekan, u ijtimoiy-falsafiy ma'no tashiydigan majoziiy obrazga aylanadi. Mazkur jonzot she'rda yangidan-yangi qirralarni namoyon etadigan vositani ifodalaydi. Shu tariqa ijodkor talqinida tasavvuriy-tasviriyl yaxlitlik birlamchi o'ringa ko'tariladi. O'z-

o'zidan ayonki, timsoliy aqida doimiy tarzda tafsilotni badiiy markazga yig'ishga intiladi.

Ko'nglimda ko'nglimning ming sinig'i bor,
Ko'nglimda g'amlarning o'tkir tig'i bor.
Yig'i bor, oldinda katta yig'i bor,
Elning bolalari o'lmas bekorga.

H.Xudoyberdievaning «Karomat» she'ridan sizib chiqadigan iztirob suvrati ortida achchiq kechmish mujassam. Ko'zga tashlanadigan qarama-qarshiliklar mohiyatan davrga hamohanglik kasb etadi. Ayniqsa, lirik xarakter tabiatidagi tuyg'u-kechinmalar ziddiyati Farg'ona, O'sh, O'zgan fojialari asosida millatning kelajagi, taqdiri bilan mushtaraklikda badiiy tadqiq qilinadi. Shoir ushbu tushkun, konfliktli kayfiyatdagi ko'rinishlarni «men» orqali bugungi avlod armonlari, hayot saboqlari bilan bog'liq ifoda etadi.

Lirik kechinma teranligi janr tanlamaydi. U ko'proq ijodkor mahorati hamda nozik badiiy ilg'amni taqozo etadi. She'rda hissiy idrok ustuvorlik qiladimi yoki aqliy tafakkur etakchi mavqe kasb etadimi, bundan qat'iy nazar mazmuniy ifoda ta'sirchanligi – tasvir originalligi yaxlitligi mazkur atama tabiatini belgilab beradi. Chunonchi, poetik hosila har bir ijodiy shakl ichki intizomi asosida shakllanadi. Aniqrog'i, tuyg'u va ong nisbati janriy o'zgachalikni ta'min etadi. Shunga muvofiq, lirik turning umumiy qonuniyatlari kechinmani tartibga solib turadi:

G'ijimlangan qog'oz
asliga qaytdi
Xatdagi yozuv ham
qaytdi qalamga
Yonayotgan surat chiqdi olovdan
Olov gugurtga aylandi.

So'nggi bosqich o'zbek she'riyatida emotsional-ekspressiv ta'sirchanlikni badiiy shakl vositasida yuzaga chiqarish an'ana tusini oldi. So'zning musiqiy

tovlanishi, tilning boy ijodiy imkoniyatlari – ohangdoshlik, bo‘yoqdorlik va ranglar uyg‘unligidan unumli foydalanishga intilish kuchaydi. Davron Rajab qalamiga mansub satrlarda ham shakliy izlanishlarga moyillik kuzatiladi. She‘rda kayfiyatni turtib uyg‘otish maqsadi muayyan ma’noda o‘zini oqlagan. «G‘ijimlangan qog‘oz», «Xatdagi yozuv», «yonayotgan surat» lirik qahramon sajiyasining ayrim qirralari. Mantiqiy urg‘u ortida (hech nima hech nima sodir bo‘lmadi) sukunatning ranglari mujassam. Olovning gugurtga aylanishi, fikrning o‘z maskani – ko‘zga qaytib kirishi (nega miya hujayralariga emas?!) tushunchaning ijodkor idrokida hissiy tuslanishini ifodalaydi.

She‘rda bir nechta an‘analarning ijodiy ta’siri seziladi. Dastavval frantsuz adabiyotidan jahon tamadduniga yoyilgan fotomontaj unsurlari e’tiborni tortadi. Haddan tashqari bo‘rttirilgan hamda moddiylashtirilgan taassurotlar tasviri ijodkor qalb prizmasida bir-biriga ulanadi. Tushunchalar o‘rtasidagi ifoda zarbining saqlanganligi adabiy mahorat bilan bog‘liq bo‘lsa, kayfiyatning mantiqiy dalillangan yangi qirralarida inglizcha ma’rifiy tarbiya ustuvorligini kuzatish mumkin. Tasavvur chiziqlarining erkin ijodiy sarhadlarda harakatlanishi ham yangilik emas: bu usul nemis lirikasi tajribalaridan yaxshi ma’lum.

Faxriyor ijodi ijtimoiy-falsafiy fikrlar uyg‘unligi hamda teranligidan oziqlanadi. Unda mantiqiy izchillik, mushohada aniqligi hamda tasvir tiniqligi yaxlitlashadi. Buning natijasi o‘laroq tabiat va jamiyat munosabatlariga daxldor ruhiy kechinma butunlikka intiladi. Badiiy izlanishlarning publitsistik ko‘lami, g‘oyaviy mundarijasi ba’zan lirik hissiyotni bir qadar cheklab qo‘yadi:

Yurak uzlatnishin Yassaviy kabi
yolg‘onchi dunyoni dunyoni kechirib yashar.
Yurak –
Usmon Nosirga
hayotligida
Berilgan yakkayu yolg‘iz mukofot.

Ijodkor hech istihola qilmasdan badiiy chizgilarga katta ijtimoiy ma'no yuklaydi. «Qafas bilan tug'ilgan qush» - Yurak mudomi o'z «patlarin qonga botirib, she'rlar yozar ozodlik haqda!». Chunki, aslida uning kasbi «erkka ixtisoslashtirilgan». Vaholanki, «Odamni qamab qo'ysa bo'lar, surgun qilsa bo'lar, haiioki... O'ziga!». Anglashilyaptiki, keskin, jangari hissiyot yuqori dramatik pardalarda o'z mohiyatini ochib bermoqda. «Hattoki» zamirida shakllanayotgan urg'u falsafiy mushohadadagi ta'kidni yanada kuchaytiradi. Muallifning o'ziga xos poetik manerasini belgilab berayotgan jiddiy kinoya (Mening jonim chiqar, Shunda u la'natiga yodlataman shiorlarni, toki u o'rgansin yashashning ma'nosi maqoldan emas, shiordan iborat ekanligini) zamirida davr ruhiga hamohang iztiroblar, alamlarga burkangan istehzo hukmronlik qiladi. Shu tariqa piching, kesatiq singari yordamchi vositalar lirik kechinmani shakllantiradigan poetik belgilarga aylanadi.

B.Ro'zimuhammadning «Tong o'zicha haq men ham o'zimcha» she'ri ijodkor fitratida mavjlanayotgan ruhiy g'alayonni aks ettiradi. Badiiy-psixologik talqin zamirida inson ichki kolliziyasi tasviri quyuqlashadi. «Mevalari to'kilgan daraxt kabi» imkonsizlik, «huvillagan vujudda sobit qolgan sezgi» qadar yolg'izlik suvrati ortida ruhoniyl dard mavjud. Haqli savol tug'iladi: «Men» qachon parchalanib ketmaydi? Xavf faqat va faqat «turli-tuman ranglar yagona tovush shaklida» uyg'unlashsagina bartaraf bo'ladi:

Tong o'zicha haq men ham o'zimcha
Tushimga yashirdim tun gavharini
ufq ortiga
g'oyib bo'ldi ovoz
ko'z nuri jo'nadi shu'la izidan.

Matnda mavjud adabiy til qonuniyatlari negizida sub'ektiv ijodiy nutq shakllanganligi ko'zga tashlanadi. Lug'aviy ma'nodan mifopoetik tasavvurga, mifopoetik idrokdan poetik obraz qurilmasiga o'tish lisoniy birliklarning sintetik ko'lamini belgilaydi. Shartli-nisbiy ravishda tartibga solingan – qayta

ishlangan lirik kechinma uyushiq bo‘laklarning emotsional uyg‘unligini ta’min etadi. Bu holat esa o‘z navbatida grammatik va uslubiy me’yorlarning erkin harakatlanish miqyoslarini belgilab beradi. Aynan badiiy talqinda ikkilanganlik (hayot haqiqati va poetik voqelik) kechinma tabiati impulsiv xosligini ifodalaydi.

Haqiqiy poeziya - hayotning tub-tubiga boqa bilishdir. Shoir qancha iste’dodli bo‘lsa, uning ko‘zi hayot ildizini shuncha aniq ko‘radi, mohiyatini bexato anglab etadi. Shoir Rauf Parfi o‘zining betakror ijodida turli mavzularga murojaat qilib har xil tasviriy vositalardan foydalangan xolda yangidan-yangi go‘zal poetik obrazlar yaratdi.

Yana shuni ham alohida ta’kidlash lozimki, shoir va she’riyat uchun hurriyat, vijdon millatparvarlik g‘oyalari taqozo etgan kurashchan ijtimoiy dard asosiy maqsad, asl matlab emas. Uning o‘zi tabiatan ruboiy-lirik ibtido-azaliy nafasatsiz, qolaversa sof insoniy, ruhiy-ma’naviy ehtiyojlarsiz yashay olmaydi. Rauf Parfining she’rlaridan birida yana shunday murakkab ruhiy holat faqat haqiqiy shoir, o‘zi yoqqan alangada yongan» (A.Oripov) chin fidoiy ijodkor iztiroblari haqqoniy ifodalangan:

Izlaysanmai senda, bir panoh
Hech tinarmi bu kuy, bu og‘riq?
Ehtimolki, bekordir, evoh,
O‘rtanishning bu qador bag‘ring?)
O‘ychan necha, tun ichra tanho
Rauf Parfi, qoldik ikkovlon...
Biz mehrga to‘ymadik aslo,
Mehr, mehr istaymiz, hamon.
Yoki mana boshqa bir she’rini olaylik:
Rahmsiz olomon, Sizga ne kerak?
Angladim, jismimni, ruhimni bog‘lar
Vohiy keldi menga, chirmandi yurak,

Aks-sado berdi muqaddas yurak
Farogʻat zirvasi. Olam-belgisiz,
Oxir sen keldin. Xayolga oʻtolding.

Shoir avvalida olomonga murojaat etadi. Olomon belgisiz deya uning sirliyini, tushinib boʻlmas hodisalarga boyliyini, uni qancha oʻrganmang baribir bilib, anglab boʻlmasliyini yoʻl-yoʻlakay aytib oʻtadi.

Vodiy ogʻushida soʻzsiz belgisiz,
Asta odimlarda koʻzdan yoʻqolding
Faqat qayga ketding, qayga yoʻqolding?
Oh qanday yashayman, sensiz-sevgisiz.

Sheʻrda kimga atalgan boʻlsa, uni bevosita sevgi timsoli deb biladi shoir.
Sohilda bir oʻzim. Dengiz qorongʻu,
elkansiz kemanding ichida shubham
Vohima shiviri, boʻgʻzimda oqu,
Aqlim bir falokat sezadir mubhan.

Sohil va dengiz obrazlari majoziy timsollar boʻlsa kerak. Dengiz hayotga, sohil uning tugallanish marrasiga qiyos qilinadi. elkansiz kema esa shamol aqimiga boʻysinmagan inson, mavjudod yoki guruh ramzidir. Nega deganda elkanli kema odatda shamol kuchi bilan mutanosiblikka harakat qiladi. U qay tamonga etaklasa, oʻsha yoʻnalishda- shamol yoʻnalishida ketaveradi. Shoir shu «kema»dan shubhalanadi, uning kelishidan falokat kutadi.

Rangi oʻchgan osmon xunuk gʻuldirar,
Achchiq chirqiraydi nomaʻlum bir qush
Va yonimda qonli boʻloq uldirar,
Atirgullar sening gullaring behush

Shoir bu ruhiyati tabiatida ham oʻz aksini topadi. Uning qalbidagi bu jarayon bilan tabiat hodisalari birlikda bitta iqlimni tashkil etadi:

Faryodim ichimda otma gulingni,
Otma yolgʻizlikdan baxtli kuningni.

Yolg'izliklikni baxt deb hisoblar shoir. Quling deb aytdimi, demak bu Olloh yo uning qudratichalik qudratga ega mavjudod yoxud tuyg'u yo'q:

Vaqt-Ulug' hakam Ruhing uyg'onsin.

Asriy umidim-sen. Muxtasar borsan.

Vaqtga to'xtaladi shoir takror va takror. Goh uni hakam deydi: gohida beomon deb ta'rif etadi.

Ayon haqiqatga haq yo'lga boshla

Fursat o'tmaqdadir, vaqt-bu beamon.

U dunyo omonatligi bilan birga odamning ham omonatligini ta'kidlaydi:

Omonot dunyoda omonat odam-

Vijdon shexvasi bor, mehrobi iymon.

Asl insonlarin chorlaydi bu dam

Vijdon shevasi bu juda go'zal va orginal qo'llangan timsoldir. Bu ham Rauf Parfining bohqa she'rlaridagi so'z qo'llashlaridagi kabi hech bir shoir ijodida uchramagandek taasurot qoldiradi. Vijdon shevasini u mehrobi, ya'ni sajda qiladigan, boshini qo'yadigan jayini iymon deb belgilaydi.

Rauf Parfi-yonib, qalb bilan yozadigan shoir. U she'riyat mulkiga ilk qadam qo'ygan daqiqalaridayoq ijodkor ma'suliyatini «buyuk e'tiqodir muborak ilhom» deb bilgan edi. Shoir hammon qanday kayfiyatda nima haqda yozmasin, ana shu muqaddas tamoyilga amal qiladi-«qadimiy so'zlarni yangi badiiy imkoniyatlarini ikkishof etadi: «Har qanday vaziyatda harakat va samimiyatga sodiq qolishini, hayotning eng qiyin muammolariga, shavqatsiz savollariga ham oshkor ro'y-rostlik tuyg'usi bilan yondashishni she'riy ijod uchun zaruriyat deb biladi. Shu tariqa, ob'ektiv alam, xususan, uning ichki qatlamlari uning botiniy uyg'unligi-mohiyati ziddiyatli, davomli izlanishlar jarayonida ruhiyat manzaralariga aylanadi.

Rauf Parfi she'riyatini H.Olimjon, G'.G'ulom, Mirtemir kabi shoirlar ijodidan ajratib turuvchi ikkita xususiyat bor: Bulardan biri-she'riy siqqlikka alohida e'tibor beriladi. Bu jihatdan turfa xil ma'nolarni o'zida singdirgan

go‘zal poetik obrazlar asosiy o‘rin tutadi. Yana ta‘kidlab o‘tmoq joizki, u favqulodda obrazlarni she‘riyatga kiritishdan cho‘chiydi. («Ruh Daxma, Xasrad, Hasad»). Ikkinchi xususiyat-uning she‘rlarida Inson va Koinot uyg‘unlikda, mushtaraklikda tasvirlanadi. Ana shu bog‘lanish oqibatida oddiy hodisa va xolatlar shoirning yuksak g‘oyasi va fikriga buysundirilib, poetik go‘zallikni yuzaga keltiradi.

Tong otmoqda. Tong o‘qlar otar

Tong otmoqda. Quyosh-zambarak

Yaralangan er shari yotar-

Boshlarida yashil chambarak.

Quyosh-zambarak! U erga o‘z o‘qlarini-zarralarini sochmoqda. U o‘qlardan er shari yaralangan. Boshidagi yashil chambarak-hayot va tiriklik ramzi. Obrazli detallar (quyosh-zambarak, yaralangan er shari yashil chambarak, o‘qlar) o‘zaro bog‘lanib yaxlit bir mazara tong otish manzarasini yaratmoqda.

Rauf Parfi ijodidagi ikki fazilat lirik nafosat va publitsistik harakat alohida-alohida yashaydi, kamdan-kam hollardagina bir-birlari bilan tutashadi. Shuning uchun ham lirik Rauf Parfi publitsistik R.Parfini ba‘zan inkor qilgandek tuyuladi. Lekin, aslida, publitsistik Rauf Parfi lirik shoirning bezovta va tashvishli asrimizdagi davomidir.

Umuman, R.Parfi ijodi o‘rining vijdoniyligi yuksak ma‘naviyatlar mulki ekanligi bilan katta ahamiyatga ega. Albatta bu shoir she‘riyatning badiiy saviyasi, qahramonlarining darajasi, qalb tuyug‘ularining qarama-qarshiliklarida namoyon bo‘ladi. R.Parfi ijodi misolida aytish mumkinki, she‘riyatimiz yangi burilishlar ma‘naviy-axloqiy poklanishlar hamda yangicha badiiy tafakkur madaniyatini shakllantirish an‘anasini davom ettirmoqda.

Yangi badiiy tizimda kuzatilayotgan ijobiy o‘zgarishlardan biri she‘r tilini ijodiy - alohida jarayon tarzida shakllantirish tamoyilining ortganligi bilan izohlanadi. Tasavvurlar oqimini shartli belgi-kod-ramzlar uyg‘unligi sari yo‘naltirish, muallif dunyoqarashi va a‘moli mohiyatini yoritishda faktografik

sharhlardan samarali foydalanish, kommunikativ aloqalarning estetik quvvat manbaiga ta'sirini kuchaytirish, badiiy munosabatlarning hali ochilmagan yangicha ifodaviy-tasviriy imkoniyatlarini axtarish asosiy o'ringa ko'tarildi. Mazkur holatda ijodkor fitratiga xos nazariy qarash poetik muhokamalarni boshqaradi, g'oyaviy-badiiy mantiq - tuyg'ular shiddati tabiiy ravishda makon, zamon va imkon chegaralarini buzib yuboradi. Aslida sub'ektiv talqinlar so'zning ijodiy ufqlarini kengaytirish bilan birga uning tabiatini ham xiyla murakkablashtirib yuboradi. Nazariy san'atning teran tadqiqotchilaridan biri amerikalik adabiyotshunos Djozef Koshut yozadi: «XX asr yangi bosqichga kirdiki, uni falsafaning intihosi va san'atning ibtidosi sifatida baholash maqsadga muvofiqdir»¹. Darhaqiqat, badiiy tizimdagi evrilishlar mohiyatni anglashning g'oyaviy tizimini, demakki, yangicha takomilini maydonga chiqardi. Buning natijasi o'laroq ijodiy idrokning umumlashmaviy-tahliliy omillari muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni paytda shaklparastlikning keyingi bosqichi sifatida g'oyaviy asos jimjimadorlik va sun'iylikka barham beradi, badiiy mantiq doirasini kengaytiradi. Zamonaviy o'zbek milliy ilg'or she'riyatida xos ijod qonuniyatlari ta'siri A.Qutbiddin, A.Said, B.Ro'zimuxammad, Davron Rajab, Go'zal Begim, Xayrullo, A.Hayit, P.Sodiq, Sh.Rahim izlanishlarida qabarib ko'rinadi. Bu holat lirikaning o'q ildizi hisoblanmish ruhiy kechinma ifodasi o'zgacha shamoyillarini yuzaga keltiradi hamda yangicha ijodiy yondashuvni shakllantiradi.

To'rtlik, oq she'r singari janrlarda lirik kechinma tabiati uyg'unlikka erishadi. Negaki, mazkur usullarda fikr tadriji etakchilik qiladi. Mushohada nisbati esa o'z navbatida manzara, holat, vaziyat tahlilini estetik markazga yig'adi. Shu nuqtai nazardan aytish mumkinki, hayot haqiqati va badiiy mohiyat o'rtasida ruhiy kechinma shakllanadi. Uning namoyon bo'lish tarzi va o'ziga xosligi iste'dod yo'nalishi hamda adabiy did vositasida teranlashib boradi.

¹ Модернизм: анализ и критика основных направлений. - М.: Искусство, 1980. -С. 273.

Aslida tuyg‘u tushunchasi murakkab hodisadir. Uni to‘la ma’noda anglab bo‘lmaganidek, muayyan tarzda to‘liq anglatib ham bo‘lmaydi.

Mazkur bobda bayon etilgan mulohazalarni umumlashtirish asosida muayyan ilmiy xulosalarni ilgari surish mumkin:

- lirik kechinma poetik ijodning mag‘zi va ajralmas tarkibiy qismidir;
- kechinma asosan ko‘ngilning bir lahzalik tasvirini bersa ham, bu hol poetik taassurotning oniyligini bildirmaydi, chunki she‘r tug‘ilishida u yoki bu rolni o‘ynagan poetik muhokama bir qancha vaqt davomida yig‘ilishi mumkin;
- poetik voqelik moddiy yoki ruhiy-psixologik asoslarga egaligi bilan estetik zalvor kasb etadi. Mazkur jihatni ijodkor shaxsiyati belgilab beradi;
- she‘r tug‘ilishiga sababchi bo‘lgan kechinma ifodasida aql va tuyg‘u teng ishtirok etsa-da, bu hol poetik asarda turfa darajada aks etadi;
- lirik kechinmaning mazmuni she‘riy asardagi badiiy obrazlar, lirik vaziyatlar, lirik syujet va hokazolarning emotsional hissiy bo‘yog‘ida o‘zining ifodasin topadi;
- lirik tur janrlari mazmun jihatdan har qanday kechinmalarni ifodalay oladigan va ma‘lum mazmundagi kechinmalarni ifodalay oladigan ikki guruhdan iborat:
- lirik janrning talablari kechinma ifodasining to‘liq, mukammalligini belgilamaydi, balki bu holatga turli darajada ta’sir qiladi;
- she‘r badiiyatini uning janri, g‘oyasi, mazmuni, etakchi kechinmasi, ohangi va pafosi emas, balki yuqorida sanalgan she‘riy unsurlarning ifodadagi uyg‘unligiga olib boradigan shoir iste’dodining darajasi belgilaydi. Umuman, lirik janrlarning ruhiy kechinma bilan munosabati muayyan adabiy qonuniyatlarga suyanadi va har bir shaklda xoslanadi.

III BOB

RUHIY KECHINMA VA OBRAZLILIK

Har bir kitobxon o'z umri davomida ko'pgina she'rlar mutolaa qiladi. She'riyatning eng yaxshi namunalari uning xotirasida mixlanib qoladi va umr bo'yi uning hayotida hamroh bo'ladi. Og'ir daqiqalarda unga ruhiy madad beradi. Unda umid, ishonch tuyg'ularini uyg'otadi. Lekin mana shu she'rlar qanday vujudga keladi va u qanday vositalar orqali go'zal asar darajasiga chiqadi? Umuman lirik kechinmaning o'ziga xos tabiati mavjud. Bu xususida adabiyotshunos olim, professor B.I.Sarimsoqov shunday yozadi:

«Hayotdagi xarakterli voqea va hodisalar ijodkorning diqqat-e'tiborini tortib, qalbu shuuriga o'rnashib oladi, unga orom bermaydi, uning hayoti va faoliyatidagi o'y surish, mulohaza yuritish muvozanatini buzadi. San'atkorning qalbini zabt etgan, uning oromini, huzur-halovatini buzgan ruhiy holat lirik kechinma, deb ataladi.

Lirik kechinma ba'zan oniy ruhiy holat sifatida kechib, estetik qimmat kasb etuvchi mahsul beradi va yo'qoladi. Ba'zan esa u muayyan tugallikka, estetik qimmat kasb etuvchi asar sifatida shakllana olmay, ijodkor qalbida, shuurida uzoq vaqtlar saqlanib yuradi. Mana shundan kelib chiqib aytish mumkinki, lirik kechinma voqea bo'lishi va tugal estetik qimmatga ega bo'lgan asar sifatida shakllanishga qarab ikki xilga bo'linadi: Oniy lirik kechinma va xotirali lirik kechinma»¹.

Umuman, badiiy ijodda asar yaratishda ma'lum voqea-hodisa, ma'lum bir asar yoki ma'lum bir shaxs kabilar turtki vazifasini o'taydilar. Bu holat esa yuqorida tilga olingan har ikki lirik kechinma holatiga ham bevosita aloqadordir. Qolaversa, adabiyotshunoslarimizdan B.Norboev ta'kidlaganidek, ijodiy jarayonda «...mavzular, g'oyalar umumiyligining o'z sabablari bor. Shoirlarning orzu-armoni, intilishlaridagi o'ziga xos umumiylikni

¹ Sarimsoqov B.I. Badiiylik asoslari va me'zonlari. –T.: Fan, 2004. B-85

ilg'amoq mumkin. Ular ezgulik va go'zallikni kuylaydilar, nohaqlik, adovatga, urushga nafrat uyg'otishga harakat qiladilar. Ko'proq shuning uchun ham ularning she'rlarida bir-biriga yaqin g'oyalar, fikrlar, obrazlar ifodalanadi. Buning ustiga har bir shoir o'zidan oldingi va zamondoshi adiblarning asarini o'qib o'zlashtiradi, ular bilan bevosita, goh bilvosita, gshoh bevosita muloqat qiladi. Shu muloqotlar, o'qib-o'rganishlar o'z-o'zidan ular dunyoqarash, olamni poetik idrok etish usuliga ta'sir qilib ijodiyotida mushtarak nuqtalarni yuzaga keltiradi. Yana shuni ta'kidlab o'tish joizki, she'riyatda o'zidan oldin ijod qilgan yirik shoirlarning ta'siriga u yoki bu darajada berilmagan qalamkashni topish qiyin¹.

Yuqoridagi mulohazalarmizning isboti sifatida R.Parfi she'riyatiga ta'sir qilgan shoirlar va ular asarlaridagi ramziy-majoziy tasvirlar hamda bunday tasvirlarning R.Parfi ijodidagi o'ziga xos talqini xususida fikr yuritib o'tsak maqsaddan holi bo'lmaydi.

20-30 yillardagi Cho'lpon o'nlab timsollar kashf etgan yoki an'anaviy obrazlarga o'zgacha ma'no bergan. Aytaylik ko'ngil, gul, yaproq, qush, yulduz, kishan singari o'nlab timsollar xalq va Vatan obrazini ifodalashga xizmat qiladi. Shoir bu xil timsollardan foydalanib, xalq ozodligi g'oyasini har gal turlicha ohang va ranglarda ilgari suradi.

«Binafsha» ham Vatan ramzi sifatida ifodalanadi. Shoir yurt dardi bilan yongani uchun ham ko'chada sotilgan ezilgan, g'amgin binafshada Vatan timsolini ko'radi: «Binafsha nimaga bir ozroq ochilmay, bir erkin kulmasdan uzilding, Binafsha nimaga hidlaring sochilmay erlarga egilding, cho'zilding deganidanoq, biz gap aziz yurt haqida ketayotganini sezish mumkin.

Binafsha, yig'lama, binafsha kel beri,
Qayg'umni qayg'ungga qo'shgil,
Binafsha sen uchun ko'kragim erk eri

¹ Norboev B. Istiqlol va iste'dod. -T.: 1996. –B.69

Bu erdan ko'klarga uchgil

Shoir qahramoni Vatanning ko'klarga uchishi-ozod bo'lishi aniq bo'lsa ko'kragi erk eri bo'lishiga-jonini fido etishga tayyor.

Demak, Cho'lpon ham ko'plab timsollarni qayta kashf etib, o'zgacha ma'nolarda ishlatgan, oddiy obrazlar ham uning qalami ostida o'zgacha sehrli ma'nolar kasb etgan.

Ko'ramizki «Yulduz», «uchish» singari barcha ramziy majoziy detallar Cho'lponda ozodlik g'oyasini ifodalash uchun xizmat qiladi. 60-80 yillarda faol ijod qilgan Rauf Parfi va boshqa bir qator shoirlarimiz majoziy-obrazlarni ishlash printsipli bu buyuk shoirning hayotning hayotni poetik tadqiq etish taomiliga yaqindir.

Rauf Parfining «Cho'li iroq» nomli turgan bitgani majozdan iborat she'ri bor. She'r: «Ufq yonar, ufq. Uff! Karvon borar qumlikda...» singari ohangdor, ramziy so'zlar bilan boshlanadi. She'r davomida biz «yo'l»ning tuzum, karvonning esa el ekanligini anglaymiz. Karvon o'zi uchun mubham va noaniq «yo'l»da sahrolar orasida bormoqda, yo'l og'ir, mashaqqatli, ammo karvon ezgu-umidlar maskani-Buloqqa-adolatli tuzumga, o'sha davr nuqtai-nazaridan olganda kommunistik tuzumga «bormoqda». Buloq-o'sha tuzum timsoli, ammo she'r oxirida shoir «O'sha buloq qurigan biroq» deydi. Shu oddiy majoziy timsol orqali kommunistik tuzumning xomxayol ekanligini ochib beradi.

Bu xildagi tagdor timsollarining o'ziga xosligi shundaki Rauf Parfi qullik, qaramlik haqidagi fikr-tuyg'ularini manzaralar botiniga yashirib, mavjud voqealikka o'zining tanqidiy munosabatini ko'rsatadi.

Shoir Cho'lpon Ergashning «ellar» deb nomlangan she'rida esa ellarni bo'ronlarni uyg'atuvchi kuch timsolida tasvirlaydi. Ularni shamollarning nevaralari, bo'ronlarning chevaralari deb ataydi: «Hey, siz bo'ronlarning chevaralari etagidan tuting, bo'ling tezdin. Manzil yaqin, porloq. ellar, jon ellar, Bo'ronlar, shamollar kutadi sizni». Bu she'rdagi barcha ramzlar el, shamol,

bo‘ron, quyosh, nur-barchasi ozodlikka chiqish lozimligi haqidagi fikrlarni ifodalash uchun xizmat qilmoqda.

Demak tabiatdagi holatlar ifodalangan, manzaralarni aks ettirishga bag‘ishlangan she‘rlarda tasvir botiniga muhim ijtimoiy ma’nolar joylay olish tamoyili qaror topdi, shakllandi. Yuqoridagi she‘rlarda insonni ko‘radigan tuzumga qarshi nido satrlar botinida anglashiladi.

Qolaversa, she‘riyatda ramziy ifodaning turli xil ko‘rinishlari mavjud, Masalan: Abdulla Oripov «To‘ti» she‘ridagi bulbul-ona tilining ramziy ifodasi.

Umuman, shu o‘rinda she‘riyatga xos ideallashtirish xususiyatini alohida eslatib o‘tish lozim. She‘rxon shoir tomonidan ideal obraz asosiga yashiringan ideal talqinni his etmasa, so‘z obraz bilan material estetika darajasidagi so‘zning mohiyatini chuqur his etolmaydi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, ramziy-majoziy obrazlarni yaratishda eng zarur vositalardan biri istiora vositasidir. Istiora mavhum tushunchalarini oson anglashda tasavvur etishda ahamiyatlidir. Shuning uchun metafora inson ongining voqelikni badiiy inkishof etishda jismoniy materialdan ruhiy umumlashtirishga, aniq predmetlardan mavhum tasavvurga o‘tishning yohud shu jarayonining butunlay aksiga qarab yo‘nalishini belgilab beruvchi ko‘chlidir. Bir-biriga zid mana shu

jarayonda paydo bo‘lgan istioralarning aksariyati nutq jarayonidagi tabiiy ehtiyoj tufayli paydo bo‘lib, tilimizning tabiiy boyligiga aylanib qolgan. Istioraviy ko‘chimlar shaklan aniq yoki mavhum bo‘lishlaridan tashqari obrazning ijobiy yoki salbiy jihatdan baholash xususiyatiga ega. Badiiy kontekstdagi istioraviy ko‘chimning faolligi, vazifadorligi san’atkorning ijodiy maqsadi, tuyg‘ular chuqurligi va boyligi, estetik baholash darajasi orqali boshqariladi: mana shu jarayon orqali quvvat olgan obraz asarni qabul qiluvchiga hissiy-aqliy ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, Rauf Parfining quyidagi misralarida jonlangan metaforik obrazga diqqat qilaylik:

Derazamga uriladi qor,

Jaranglaydi jarangsiz kumush (40-bet)

Ushbu misralarda lirik qahramonning o'z sevgilisini, o'ylagan paytda xotirasi yog'ayotgan oppoq qorga muqoyasa qilanadi. Shu lahzaning oqlik belgisi istioraviylik yo'li bilan kumush, deyiladi. Chunki kumush rang tovlanish bilan tungi yoki tonggi qorga o'xshaydi. Qor obrazining oppoq xotiraga va bu xotiraning kumushga o'xshatilishi ikki narsa o'rtasidagi rang mushtarakligi asosidagi metaforin obrazni yuzaga keltiradi. Ammo metaforik obrazning faolligini oshirish, ya'ni «kumush»ning ta'sir doirasini kuchaytirish uchun «jarangsiz» aniqlovchisini keltiradi. Natijada, metaforik obrazning she'r g'oyasini ifodalashdagi faolligi kuchaygan.

Real hayotiy obraz va unga mos keluvchi metaforik obrazni yuqoridagidek yonma-yon parallel keltirish qo'llanilgan istioraning mazmunini to'g'ri anglashga ko'mak beradi.

Individual istioralar ayrim hollarda aniq ilg'ab olish qiyin bo'lgan, faqat his qilish orqaligina tasavvur etiladigan tushunchalarni muayyan ko'chma ma'nodagi obrazlarda jamlash, umulashtirish, betakror qiyofada aniqlashtirish va baholash orqali ijodkor qalbida jo bo'lgan tuyg'ular oqimini yo'naltirib, kitobxon qalbidagi hislarni uyg'otadi. Bunday xarakterdagi metaforik obrazlar adabiyotda juda ko'p. Shu bilan birga she'riyatda metaforik ko'chim vositasida yuzaga kelgan konkret obrazdan umumiylikka tamon yo'nalishda yaratilgan metaforalar ham ko'p. Chunki bu yo'nalish ijodkor shuurida qatlanib yotgan tasavvurlarni, g'oya va qarashlarni istagancha metaforik obrazga joylashga, ularga o'zining sub'ektiv munosabatini bildirishga katta imkon beradi. R.Parfining quyidagi she'rida «Tuman» obrazi qo'llangan. Aslida tuman namlik va zaroratning muayyan nisbatdagi holatidan vujudga keladigan narsa bo'lib, u kishiga atrofdagi narsalarni aniq ko'rishga xalol beradi. Inson ongini, hissini, hasrat, qayg'u o'rab olsa, uning idroki, aql-zakovati tumandagi odamga o'xshab atrofdagi dunyoni yaxshi ilg'ay olmay qoladi. Shoir tabiatidagi tumanча xos xususiyatlarni dunyo hasratlari, qayg'ulariga ko'chiradi. Agar shoir tuman va

qayg‘u, hasrat o‘rtasidagi umumiylikni, yaqinlikni ilg‘ay olganda edi, «tuman» so‘zini konnotativ ma‘nosida qo‘llay olmas edi. Tuman metaforasining tamaki tutiniga o‘xshatish, undagi achchiqlikni esa dunyo qayg‘usiga ko‘chirish o‘xshashli ko‘chimning real voqealikka nihoyatda nozik va aniq tuyg‘ular asosida aks ettirish imkonlari mavjudligidan dalolat beradi:

Tuman tamaki tutinidek,
Guyo dunyoning qayg‘usi.
Quyosh sari ketmoqda chekib,
Dunyo xayol surib uyqusiz... (31-bet)

Individual istioralar ijodkorlarga o‘z g‘oyalarini, dilida yotgan armonlarini istagancha so‘zlar sehriga chirmab berishga; katta-katta falsafiy xulosalarni favqulotda ko‘chimlar-obrazlar orqali ochishga yo‘l ochadi. Masalan: Rauf Parfi «Shamollar» she‘rida «Shamol» so‘ziga shu qadar teran, bir-biridan uzoq ko‘chma ma‘nolar beradiki, natijada, she‘r so‘ngida bu ko‘chim asrimiz kishilari boshidan kechayotgan suronli oqimi va falsafiy va shiddatini ifodalay oladigan istioraviy obrazga aylanadi. Demak, she‘rdagi «shamol» tinimsiz suron bilan esadigan XX asr onlarining badiiy ifodasidir.

Narsalarga narsaday
Qaray olmasam,
Yolg‘iz sen sabab
Shamollar onasi, hoy asrim (61-bet).

Xullas, asarning badiiyligini ta‘minlashda adib metaforalari bilan bir qator individual metaforalar ham faol ishtirok etadi. Individual metaforalar esa ko‘chim darajasi, hissiy chuqurligi favqulotda obrazlilik betakrorligi bilan alohida ajralib turadilar. Istioralarning bu turi ijodkor uchun yuksak falsafiy-estetik xulosalar qilishga beadad imkon beradi. Asar yoki obrazning badiiyligi istioraviy ko‘chimlar bilan birga ramzlar vositasidagi ham ta‘minlanadi. Shunday adabiy faktlarga ham duch kelinadiki, obrazning badiiyligi istiora yoki

ramz tufayli vujudga kelganligini aniqlab bo'lmaydi. Chunki ularda ramz bilan istiora birlashib ketadi: yo ramz istioraga, yo istiora ramzga aylangan bo'ladi.

Ijodkor ramzni istiora sifatida istifoda etganda, uni xalq tasavvurida juda qadimdan mavjud bo'lgan tayyor obraz sifatida ishlatadi. Masalan Alisher Navoiy o'zining yaqin kishilaridan birining vafoti munosabati bilan yozgan bir ruboiysida xalqning qadimgi astral mifik qarashlari ta'sirida maqbuba yoki yaqin kishini ey, o'lim va mahrumlar dunyosini-qaro tufroq; baxt va tolesi yarqiragan insonni, tiriklik va hayotni-quyosh ramzlaridan foydalanib lirik qahramonning mahbubasi yoki boshqa bir kishining vafot etganligi, ushbu yo'qotish tufayli bu yorug' dunyo uning ko'ziga zimistondek qorong'u bo'lganligini va motam azobining behnihoya ulkanligini ifodalashga xizmat qildirganini ko'ramiz:

Yo shung'on emish qaro bulutg'a mohim

Gardumni sovurmog'lik erur dilhokim.

Kirmish qaro tufroqqa quyoshdek mohim,

Nechun qaro qilmasin quyoshni ohim.

Darhaqiqat, oy qora bulut ortiga yashirigan bo'lsa, lirik qahramonning yaqin, sevimli kishisi hayotidan ko'z yumgan. Quyoshdek yoppa-yorug' oy qoratuproqqa kirsalatta, ma'lum bo'ladiki, ruboiydagi qaro bulut, oy, quyosh, qaro tufroq kabi musulmonu nasroniylar dunyosida bir xilda tushunilgan ramzlarning bir hayotiy lavha yoki vaziyat tasviri uchun moslashtirilgan istioraviy vazifada qo'llanishdan iborat.

Shu o'rinda istiora ham izoh berib qo'yish maqsaddan holi bo'lmaydi: «Istiora arabcha so'z bo'lib «biron narsani omonatga (vaqtincha) olmoq degan ma'noni ifodalab, adabiy asarda so'zni o'z ma'nosidan boshqa bir ma'noda, aniqrog'i uni haqiqiy ma'nosida emas, balki majoziy bir ma'noda qo'llash san'ati sanaladi»¹.

¹ Hojiahmedov A. She'r san'atlarini bilasizmi? –T.: 2001. –B. 12.

Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki shoir Rauf Parfi har qanday davrda ham o'z iste'dodni namoyish etib, har xil badiiy vositalar yordamidan foydalanilgan holda go'zal realistik she'rlar yaratdi. Bunday she'rlarning barchasida inson hayoti va inson zoti o'ziga xos tasavvur va tushunchalar yangicha talqimlarda o'z ifodasini topdi.

«Rauf Parfi she'rlaridagi lirik nafasatining yana bir tamoni bor. Gap shundaki, 60-yillar sho'ro adabiyotining hukmron ijodiy metodi sotsialistik realizm «ochiq metod» deb e'lon qilingan. Sotsialistik realizm adabiyoti bu davrda boshi berk ko'chaga kirib qolgani va jonli hayotdan uzoqlashgani ma'lum

bo'lgan edi; shu tufayli bu adabiyotga yangi havo olib kirish zarurati tug'ildi. Natijada Lotin Amerikasidagi ispanzabon adabiyot namunalari, polyak va chex she'riyatining o'ziga xos antalogiyalari qatori Yapon klassik she'riyatining buyuk obidalari ham rus tiliga tarjima qilingan. Ular orasida sho'ro she'riyati uchun yot bo'lgan Yapon xokku va tankalari ham bor edi. Bir-biri bilan an'anaviy aloqaga ega bo'lmagan lekin inson ruhining nozik jilvalari katta mahorat bilan tasvir etilgan uch-besh satrli bu she'rlar Rauf Parfi singari nozikta'b shoirlarning dunyoqarashida keskin o'zgarish yasadi. Ular Basyo, Tanuboku singari yapon klassik shoirlarining badiiy tajribasini o'rganishga astoydil kirishdilar. Rauf Parfi ana shu jarayonda qalamkash birodorlarini orqada qoldirib, yapon she'riyatidagi yangi shakllarnigina emas, undagi lirik nafasatni, tuyg'uning ko'z ilg'amas harakatini, fikrning o'zaro olis narsalardan o't olish maylini o'rgandi».

Adabiyotshunos H.Umurov R.Parfi she'riyatidagi yangiliklardan biri haqida shunday yozadi. «Uchlik, she'riyatimizga XX asrda kirib kelganiga qaramay, bugun u katta e'tibor qozonmoqda. U mustaqil janrga aylanmoqda uchlikka asoslangan noyob asarlar dunyoga kelmoqda.

Men ko'zlaringga qarayman,

Sen o'zgalarga

Kimning ko‘zlaridan izlaysan meni?

er o‘z o‘qigan ayrilar, inson

Inson, osmonidan ayrilar quyosh,

Agar biz ayrilsak.

Rauf Parfi qalamiga mansub bu asarlarni tahlil qilishdan ko‘ra, uni o‘qib, bir olamni o‘zida jo qilgan «Jajji», ammo barcha olamga tatiydigan asar degan ishonchli xulosa chiqargan ma’quldir. Ha aynan shu musallasdagina bu o‘tli muhabbatning (izlash, ayrilish) tuyg‘ulari bus-butun, tugal, fikriy mushohadaga undaydigan, zavqqa ko‘madigan tarzda gavdalanishi mumkin edi va uni shoir mahorat bilan voqea qilgandir.¹

Mahorat iste’dod haqida gap ketganda yana bir narsani ularda jo qila bilish kerakki, bu badiiy mantiq bilan hayotiy mantiqning uyg‘unligidir. Bu narsalar, ayniqsa, biz tilga olayotgan ramziy-majoziy tasvirlarda nihoyat katta ahamiyatga egadir.

Adabiyotshunos olim professor I.B.Sarimsoqov bu xususida shunday fikrlarini ilgari surib, ma’lum misollar orqali bu narsani o‘ziga xos tarzda inkor qilib bo‘lmaydigan haqiqat ekanligini dalillab beradi: «Badiiy mantiq ham asli hayotiy mantiqqa asoslanadi. Ammo har ikki mantiq o‘rtasidagi bosh farq shundaki, hayotiy mantiq narsalar o‘rtasidagi sabab-oqibat munosabatiga asoslanishi bilan birga borliqdagi narsa, ruhiy holat va kechinmalarni o‘z tabiiy mezonida voqea bo‘lishiga asoslanadi. Badiiy mantiq ham narsalar, voqea va ruhiy holatlar urtasidagi sabab-oqibat munosabatiga amal qildgani holda ularning voqea bo‘lishida ijodkor ideali, badiiy shartlilik qanuniyatlariga asoslanadi. Mubolag‘a ham qay darajada beqiyos bo‘lmasin; real hayotdagi sabab-oqibat munosabatining hayotiy mezonlariga halol etmasligi lozim.

Hikoya qilinishiga, Alisher Navoiy yomg‘irli bir kunda yo‘lda Malono Lutfiyga duch keladi. Yomg‘ir shu darajada kuchli yog‘ar ediki, uning tomchilari xuddi ipga o‘xshab ko‘zga tashlanib oqar edi. Shunda Lutfiy Xisrov

¹ Umurov H. Adabiyot nazariyasi. –T.: 2002. –B.179.

Dehlaviyning hinduga bir she'ridagi ajoyib mubolag'ali ma'nini aytib beradi. Unda yozilishicha, bahorning kuchli yomg'irli kunlaridan birida lirik qahramon bir

yoqqa ketayotsa, oyog'i balchiqqa toyib yiqilayozadi. Shunda u nozimligidan yomg'ir «ipini» uchilab unga tayanib turib ketadi. Lutfiyning bu poetik ma'lumotidan Navoiy Husayn Bayqaro xuzurida ma'lum vaqtlarda o'tadigan she'riy bazmlarning birida yuqoridagi she'riy ma'nini gapirib beradi va Xusayn Bayqaroda ham o'zi kabi taassurot hamda hayrat tug'ilishini kutadi. Ammo shoh kulib qo'ya qoladi. Navoiy bundan ajablanadi va ertasiga Husayn Boyqaroning Xisrav Delaviy baytidagi badiiy mantiqning sabab-oqibat munosabatlari bulganligiga e'tirozi borligi biladi.

Husayn Bayqaro oshiqning yomg'ir toriga suyanib o'zini o'nglab olishiga e'tiroz bildirib, «Qancha nozik bo'lmasin, yomg'ir tori kishini suyat qololmaydi, chunki u yuqoridan quyiga tushadi. Shuning uchun unga tayangan kishining yiqilishi muqarrar deydi.¹

Rauf Parfi asrimizga, kundalik hayotimizga xos bor barcha yaxshi-yomon, ezgu va yovuz voqea-hodisalar yuragi ozgina pon, iymoni but, vijdonli, aqli barkamol insonlarga shamolu bo'ronlar kabi tinglik va orom bermasligini «shamol» istioraviy obrazi vositasida betakror ijodalay olgan. Uning she'ridagi yaxshi bir jihat asrimiz ofati tashvishi va quvonchi dor, daraxt, cho'yan, temir kabi so'zlarning ma'no zamiriga yashiringan istioraviy obrazlar qismatida o'ynagan rolini she'riyatning nozik harir parchasiga o'rab ifodalashida ko'zga tashlanadi. Agar

diqqat qilinsa «dor» so'zi ikki o'rinda uch ma'noda qo'llanilganining guvohi bo'lamiz. Birinchisida-yuvilgan kiyimlar osiladigan dor, ikkinchisida-eng yaxshi fikrlar egasi, asrimizning daholari osiladigan dor, uchinchisida-dorbozlar o'ynaydigan dor ifodalangan:

...Dor yuvilgan kiyimlar osilgan.

¹ Sarimsoqov B.I. Badiiylik asoslari va mezonlari. –T.: Fan, 2004. –B. 46.

Tomosha ko'rsatsin dorbozlar...

Dor: eng go'zal fikrlar osilgan, (59-bet)

Poeziya-aks ma'no anglatish san'ati. Binabarin, mazkur satrlarda R.Parfining «dor» so'zini denotativ (asl) ma'noda qo'llashi zarurmidi, bundan maqsad nima?» kabi savollar to'g'ilishi tabiiy. Bizningcha, «dor» so'zini dastlab ikki marta denotativ ma'noda qo'llashdan maqsad konnatativ (ko'chma) ma'noda qo'llanilgan «dor» so'zini pardalash, uni diqqatni ozgina chalg'itish va ehtiyotkorlik uchun qilingan yo'l edi.. Chunki she'r yozilgan 60 yillarning o'rtalarida «go'zal fikrlar osilgan dor»lar haqida o'ylash va gapirish tahminali edi. Ana shunday tahmenalar «dor»ni istioraviy qo'llash uchun bevosita shu so'zni ramziylik tomon tortishga majbur bo'ladi. Mana shunga uxshash holatlar bizga istiora ramzni tug'uvchi homilador onadir, deyishga huquq beradi.

Xullas, istiora tushunchani faol estetik jihatdan baholovchi obrazga aylantiruvchi ko'chimdir. Istiorada doim ikki ma'no yashiringan bo'ladi. Bu ma'nolardan biri, ya'ni ko'chma badiiy obrazning asosidir. Agar ana shu ma'no etakchilik qilib, birinchi ma'no (denotativ ma'no) unutilsa, so'z ramzga aylanadi. Istiora va ramz o'rtasidagi dialektik aloqa mana shunda ko'zga tashlanadi. Chunki istiora ramzga tomon eng to'g'ri, eng qisqa va dadil tashlangan qadimdir. Boshqacha aytganda, ramz barcha tomondan bir xilda anglanish darajasiga ko'tarilgan istioradir.

Individual istioralar an'anaviy badiiy istioraga aylanguncha, o'lardagi ikki ma'noni bir-biriga aniqlovchi sifati keltirilmasa, istioradagi ko'chma ma'noni tayin etish qiyin bo'ladi. Chunki istioradagi ko'chma ma'no alohida shaxs tasavvuri, xayoli bilan bog'liq holda yuzaga keladi.

Ma'lumki, oksimoron-bir biriga zid ma'noli tushuncha yoki narsalarni o'zaro bog'liqlikda istifoda etish orqali vujudga keladi. Oksimoroini tashkil etgan zid tushunchalar yoki narsalar aslida hech qachon munosabatga kirishmaydilar. Mana shuning uchun ushbu ko'chim hamma vaqt asar qahramonlarining ruhiy kechinmalaridagi shiddat, diqqatlarni ifodalashda ko'p

qo'llaniladi. Darhaqiqat, kechinma shiddatli tufayli suv yonadi, muz otashdek haroratli tuyuladi, qorong'ulik ziyo taratadi va hokazo. Rauf Parfining quyidagi satrlar»da bu vositaning ajoyib namunalarini uchratish mumkin:

Uyg'on, eymalagim, tur o'ringdan tur,

Otashin muzlarda isinaylik, yur.

Daryo yonmaydi, suv bilan o't bir-birining kushandasi. Ammo ruhiyatda shunday holatlar bo'ladiki, ana shunday onlarda zim-ziyo tunlar charog'on, suvli daryolar yong'inli tuyuladi. Chunki u ana shu onlarda o'z orzusiga, armoniga etishgan. Shu bois she'r so'nggida lirik qahramon o'zini ham shoh, ham gadodek sezadi va har narsaga tayyor bo'ladi.

Rauf Parfi oksimoronga juda ko'p murojaat etadi. Buning sababi shundaki, uning lirik qahramoni hamma vaqt ichki dramatizmga, keskin ruhiy kechinmalarga boy. Inson ruhidagi, qalbidagi zid kechinmalar bildan nurlangan real voqelik bir-biriga zid tasavvurlar, assotsiauiyalar tug'diradi. Shoirning «Omon Aziz. Kandokorlar» she'ridagi «ikki jahon bilmagan jahon», «olov siyohdon», «mangu yonar lahzalik otasi», «asriy hasrat», «bir lahzalik shodlik», «muzlagan olov» kabi oksimoronlar fikrimizning yaqqol dalilidir.

Demak, oksimoron asar qahramonlarning ruhida, qalbida hukmron bo'lgan ziddiyatli kechinmalar ta'sirida tabiatan bir-biriga qarama-qarshi narsalarga xos xususiyatlarni birdek tasavvur qilinishiga asoslangan ko'chimdir. U obrazning ta'sirchanligi va betakrorligini ta'minlovchi eng kuchli badiiy ko'chimdir. Shuning uchun ham keyingi yillarda o'zbek she'riyatida bu ifoda vositasiga murojaat etish kuchaydi. Bu narsa tomonidan, zamondoshimiz ruhiyatida yuz bergan kuchli ziddiyatli kechinmalar mavjudligi bilan izohlansa, ikkinchi tomondan, shoirlarning milliy tilimizning badiiy imkoniyatlarini ko'proq kashf etish mahoratlari bilan xarakterlanadi.

Qadimiy va boy merosga ega o'zbek adabiyoti ko'p asrlik taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. Asosan nazm taraqqiy etgan mumtoz adabiyotimiz Ahmad Yassaviy, Yusuf Xos Hojib, lutfiy, Atogiy, Alisher Navoiy, Bobur, Mashrab,

Ogohiy kabi buyuk namoyondalariga ega. Yassaviyning sodda, xalqona ohangga yo'g'ralgan hikmatlari, Atoiy va Lutfiy kabi shoirlarimizning lirik g'azallari o'zbek she'riyatini mumtoz namunalari sifatida e'tirof etishimizga loyiqdir. Bobokalonimiz Alisher Navoiy ranju-alam tartib yaratgan yuksak badiiy ganjinalar esa o'zbek adabiyotini bo'y-bastini jahonga namoyon etishga asos bo'la oladi. Alisher Navoiy an'analari asosida rivojlangan XV-XIX asrlar oralig'idagi she'riyatimiz esa asosan an'analardan, takrordan iboratdir. Buni o'z davrida Cho'lpon ham kuyinib e'tirof etgandi.

San'at – deya yozgandi Nitshe – voqelik bizni o'ldirib qo'ymasligi uchun berilgan. Faylasufning ushbu yozgani ayni haqiqat. Chunki voqelik hamisha biz o'ylagan, tasavvur qilgandek bo'lavermaydi. Boshqacharoq aytganda hayot qiyin ish. U qarama-qarshiliklarga ziddiyatlarga boy. Unda hamisha sevinch, quvonch yuz beravermaydi. Komediya ham doimo sahnasida o'ynalavermaydi. Yoki hamisha qayg'u, baxtsizlik, nomardlik yuz beravermaydi. U faqat tragediya o'ynaladigan sahna ham emas. Ushbu sahnada ko'pincha ikkalasi ham teng o'ynaladi. Hayot sahnasida odamlar tragikomediya o'ynash majburiyati bilan rol' o'ynashadi. Inson qiyinchiliklarni engib o'tmog'i, muhammallik kasb etish uchun intilmog'i lozim. Mukammallik kasb etish uchun esa inson san'atga ehtiyojmand. Aynan shu ehtiyojni qondira olish xususiyati tufayli ham san'atning inson hayotidagi ahamiyati beqiyosdir.

Barcha san'at namunalari qatori she'riyat ham inson ruhiyatini tozartishga va yuksaltirishga xizmat qiladi.

Badiiy so'z mulkida «ekspremental she'riyat degan ibora ishlatiladi. Aslida she'riyatga qanday yorliq yopishtirilishidan qat'iy nazar, u hamisha «ekspremental» bo'lmog'i, ya'ni o'qyvchining tafakkur va tuyg'ularini hech kimning «qadami etmagan» belgisiz bir ruhiy manzillar sari boshlamog'i, oxori tegilmagan ma'naviy vodiylarga olib chiqmag'i lozim. bunday badiiy kashfiyotlarga erishmoq uchun faqatgina shoirning emas, sheorxonning ham shuuriy mehnati, quntu-zehni va nihyaot kechina bilmoq layoqati talab qilinadi.

O'zbek modern she'riyati ham ana shunday shoir va she'rxon qo'llaridan chiqqan qars tufayli chaqin chaqadigan she'riyatdir. Bu she'riyatni ikki o'q ildizi bo'lib, bulardan biri Alisher Navoiy, «Mirzo Bedil singari mumtoz shoirlarimiz va tasavvufning nodir hazinasidan oziqlansa, ikkinchisi umumjahon badiiy tafakkurining nafis ishoralarga boy she'riyatidan ibtidolanadi va eng muhimi Rauf Parfi, Bahrom Ro'zimuhammad, Abduvali qutbiddin. Shavkat Rahmon kabi shoirlarimiz yuragidav tutashib, mutlaqo zamonaviy mevalar beradi

«Aytishlaricha – deya yozadi Ozod Sharafiddinov, - olim biror olamshumul kashfiyot yaratsa, uni xalqqa anglatmoq, uchun bu kashfiyotini tafakkur yuksakliklaridan kundalik turmush zaminiga olib tushmog'i, mavhum va murakkab formulalar tilidan jo'n, ko'nikilgan tushunchalar, oddiy tasavvurlar tiliga ko'chirmog'i lozim. San'atda esa buning aksi...

Shoir ham olamshumul kashfiyotlar qiladibetakror ranglarga, maftunkor jilolarga, sehrli ma'nolarga, durdona hikmatlarga to'la go'zal dunyo yaratadi. Biroq bu dunyoni anglatmoq va anglamoq uchun jo'nlashtirib, oddiy maishat tiliga ko'chirib bo'lmaydi. Jo'nlashtirishimiz bilanoq go'zallik g'oyib bo'ladi, asarning sehru-jodusi yo'koladi, hozirgina sizni larzaga solib turgan poetik misralar beta'sir oddiy so'z jumllariga aylanadi... Shoir yaratgan kashfiyotni anglamoq uchun odam, albatta, o'sha kashfiyot yuksakligiga ko'tarilmog'i lozim».

Olim ta'kidlaganidek, haqiqiy she'riyat chindanam mo'jizaviy kuchga egadir. Uni jo'nlashtirish, beta'sir so'z jumllariga aylantirish nafosatini o'g'irlab qo'yadi. Kezi kelganda shuni ta'kidlab o'tmoq joizki, Sharqda azal-azaldan she'riyat yuksak maqomda sanalib kelingan. Albatta, bu davrda omma uchun ham sodda, ravon she'rlar yaratilgan. Biroq o'sha sodda va ravon she'rlardan farqli, insonning botiniy holati, ruhiy-irfoniy manzaralari, ilohiylik tajassumi zuhr qilingan ramziy she'rlar ham yaratilgan. Bu hol «sof san'at» tushunchasi sharqda G'arbga nisbatan ancha ilgariroq shakllangani va urf

bo'lganini ko'rsatadi. Masalan, Navoiy lirikasida ko'ngil qo'yilgan, madh etilgan mahbub, hech shubhasiz ollohdir:

Kecha kelgumdir debon, ul sarvi gulro' kelmadi,
Ko'zlarimga kecha tong otkuncha uyqu kelmadi.

«Sarvi gul» timsoli – Ollohdir. Chunki, erdagi yorni oshiq tong otkuncha, ko'zlaridan uyquni haydagan kuyi kuta olmaydi. Asosi tasavvuf falsafasi bo'lgan bu tarz she'rlarni albatta omma tushunmagan. Faqatgina ko'ngil ko'zlari ochiq sanoqli odamlargina bu murakkab she'rlarni anglashgan va qalblarida lazzat xissini tuyishgan. Modern she'riyatini ham shunday xususiyatlardan ham emasligi uni tasavvuf bilan hamohangligini, ildizi bir ekanligini tasdiqlaydi. Zamonaviy o'zbek modern she'riyati namoyondalari ichida Bahrom Ro'zimuhammad ijodida ayniqsa tasavvuf va zamonaviy modern she'riyati uyg'unlashgani seziladi. Bu hol shoirning ko'pgina she'rlarida namoyon bo'ladi:

Ilon po'st tashlagan kabi
inson po'st tashlaydi
o'lsa

Va tongga yaqinlashar
tundan korong'uroq
haybatli tongga

O'lim bayramdir
hassasini bayroq
qiladi darvesh

Tog'lar qanot chiqarib
havoga uchdi
dengiz cho'qqisiga

to‘plandi mahluqlar

Yulduz mohiyatan

kesakdek bo‘ldi

tahorat ayladi yulduzga Darvesh (Tong yaqin)¹

Tasavvuf falsafasiga ko‘ra, inson ruhini vujudni tark etishi ilonni po‘st tashlashiga qiyoslanadi. Inson ruhini tutqinlikdan qytulishi esa aslida foniy dunyoni tark etib boqiylikka yuzlashishidir. Shu sabab ham darvesh bu holni bayram deb biladi va hassasini bayroq qiladi. Shoirning lirik qahramoni darvesh boqiylik bilan yuzlashar ekan, ya’ni, vahdat-ul vujudga birlashar ekan o‘zini ruhan yuksalganini daqiqa sayin xis qiladi. Uning yulduzga tahorat qilishi esa aynan o‘sha yuksaklikka ishoradir.

Ibn Sino, Abu Nasr Farobiy kabi ulug‘ mutafakkirlar ruh birlamchi ekanini, bu yorug‘ dunyo mavjudligining sababi ilk ruh, ya’ni oliy Ruh ekanligini e’tirof etishgan. Hozirgi kunda G‘arb olimlari ko‘pgina tajribalari orqali odam vafot etganida haqiqatdan ham ruh tanadan uchib ketishini aniqlaganlar. Go‘r og‘zidan qaytgan bemorlarning dalolatlariga asoslanib aytish mumkinki, jisman ro‘y beradigan o‘lim sirli bir olam darbozalari ochilishiga sabab bo‘ladi. Xo‘sh, ruh nima? U qanday yasalgan? Qur’oni karimda ruh ishi faqat Ollohga ayonligi ta’kidlanadi. Insonga esa zarur narsalarni anglamoq uchun bir hovuch bilim berilgan, xalos. Inson shu sababli ham “g‘ayritabiiy” atamasini o‘ylab chiqargan. Sirasini aytganda esa, biz nima tabiiy, nima g‘ayritabiiy ekanligini ajratolmaymiz: bu faqat yaratgangagina ayon.

Medsina “galyutsinatsiya” nomi bilan ataladigan hodisa qayd etiladi. Bu hodisaga ko‘ra inson ko‘ziga qandaydir narsalar ko‘rinadi, nimalarnidir eshitadi va u oxir-oqibatda o‘zga olamga tushgandek bo‘ladi. Fan buni “miyani chalg‘ishi” deya talqin etadi. Ammo o‘sha holatga kirib chiqqan odamlarning guvohlik berishga qaraganda bu hodisa mantiqdan aslo holi emas. bunda inson miya vositasida qandaydir olam bilan bog‘lanadi. Vositasiz suhbatlar ro‘y

¹ Ro‘zimuhammad B. Kunduz sarhadlari. –T.: Mehnat 1999.

beradi: bunda ko‘z, til, qyloq kabi a‘zolarga hojat ham qolmaydi. Inson shularsiz nenidir anglaydi va yodidan chiqarib yuboradi. Xuddi shuningdek, tush ko‘rish hodisalari ham xali aniq echimini topganicha yo‘q. Modern adabiyotiga mansub asarlarda uchrab turadigan alahsirash, shizofreniya, tush mantig‘i, galyutsinatsiya kabi hodisalar ham inson botiniy olamida kechadigan jarayonlarni imkon qadar tushuntirib berishga urinishdir.

Insoniyat qadim-qadimdan mukammallikka intilgan. Erkin va ozod bo‘lib yashashni orzu qilib kelgan. O‘sha orzusini amalga oshirish uchun qanchadan-qancha mashaqqatlar cheki shga majbur bo‘lgan. Bugun davlatimiz mustaqil, ozod va erkin. Uning hududida yashovchi fuqarolar ham hohlaganidey yashay olish huquqiga ega. Shaxs daxlsizligi ta‘minlab berilgan. Sobiq sho‘rolar davridagidek har bir qilgan hatti-harakating uchun kimgadir hisobat berib yurmaysan. Lekin baribir, haqli savol tug‘ilishi tabiiy. Inson ruhi to‘la ozodmikan? Axir u turmushni ikir-chikirlariga, mayda-chuyda tashvishlariga baribir bo‘ysunib yashashga majburku. Shoir Baxrom Ro‘zimhammadning “Xatlar” she‘rini o‘qib bei‘tiyor shunday hayollarga borasan kishi.

To‘rt devor asiri

Mayda tashvishlarning to‘tqini

O‘zidan baland kelolmagan kimsa

Senga salom yo‘llaydi¹.

Shoir bu erda oddiy kishilar ilg‘ay olmaydigan narsalarni e‘tirof etadi. shu mayda-chuyda narsalarning inson hayotidagi romani anglatishga harakat qila turib aynan shu ikir-chikirlar butun bir inson hayotini tutqin holatda saqlab turish vositasi ekanligini ta‘kidlab ko‘rsatadi. Inson nimagadir intilib yashagan. Uning istaklari ham intilishlari kabi cheksiz. U uzoq-uzoqlarga ketib qolishni, kimlarnidir ko‘rib, suhbatlashishni va yana nimalarnidir istashi mumkin. bu istaklar bir lahza bo‘lsada kishi yuragiga o‘zining qutqusini solib o‘tishi tabiiy.

¹ O‘sha kitob, 90-bet.

Shu daqiqalarda inson o'z yuragining, ruhining erkinlikka moyilligini sezib qoladi:

Osmondagi moviy qush
Salomimni qabul et mening
Hayolingda paydo bo'lmay men
Soyamni ozod qil

Inson ruhi vujudiga tutqyn. Qachonki ruh vujudni o'ziga bo'ysundirgan holda yuksalar ekan, u erkinlikka erisha boradi. Boshqacharoq qilib aytganda aslmogiga qayta boshlaydi. Shoir yuqoridagi misralarida balandda parvoz qilib yurgan qushdek parvoz qilishni istaydi. Shu sabab ham qushga murojaat qiladi: "hayolingda paydo bo'lay men". Bunday murojaat qilishiga sabab esa, parvozdagi qushni hayoli ham erkin. Demak, shoir o'zini ozodlik tuyg'ulari bag'riga singib ketishini hohlaydi. "Sayamni ozod qil" misrasi bu fikrni yanada to'ldiradi. Shoir nazarida, ruhi ozod bo'lishi uchun vujudiga taalluqli har xil dunyo tashvishlaridan ozod bo'lmog'i lozim. buni u ozodlik timsoli moviy qyshdan so'raydi.

Shoirning ayniksa "Meni"... she'rida ozodlik tuyg'usi yanada kuchliroq va yorqinroq qilib tasvirlangan?

Meni
Tanimga zanjirband qildilar
Paypoqqa
Kovushga
Kuylakka
Zanjirband qildilar keyin.

Inson uchun zarur bo'lgan narsalar paypoqqa, kovushga, kuylakka zanjirband qilinishi – bu lirik qahramonning moddiy dunyodagi vujudi uchun zarurat darajasidagi narsalarga tobeligi deyish mumkin. Ya'ni, u bu dunyoda yashar ekan, o'z vujudi uchun zarur bo'lgan narsalarni qilish majburiyatidan qochib qutila olmaydi. Shu sabab ham nafsini quli bo'lib qadam tashlaydi.

Keyingi misrada esa shoirning lirik qaxramoni yuqoridagi fikrlarimizni to'la tushunib etgan shaxs sifatida ko'z oldimizda gavdalanadi. U o'z ruhini kamol topdirishga, erkinlikka etkazish uchun shu nafsning qulligidan qutilishiga, ya'ni barchasini tashlab ketishga qaror bermoqchi. Shu o'rinda savol tug'ulishi tabiiy, u qaerga, qay manzilga ketmoqchi? Ruhiy olamini poklashga. U ruhiy yuksaklikka erishishga harakat qilayapti. Buning uchun esa u bir qancha to'siqlarni engib o'tmog'i lozim:

Endi men
endi men
qachon bir erkinroq yashayman,
shu so'nggi xalqadan qutilib.

Shoir shu to'siqlarni zanjirga o'xshatayapti. Shu zanjir inson tanasini butunlay chirmab tashlaydi va uni yuksalishiga yo'l qo'ymaydi. U barcha qatori erda yuruvchi, ya'ni erdagi tashvishlarga o'ralib qolgan oddiy odam bo'lib qolaverishi mumkin. Lekin shoirning lirik qaxramoni. Ma'nan yuksak, ruhan erkinlikka intilayotgan shaxs sifatida namoyon bo'lmoqda. Inson, avvalo o'z-o'zida erkinlikka erishishi lozim. "Erkinlik o'zi nima? Bu o'z-o'zingga etish emasmi? Poklik va yuksaklik sari parvoz emasmi? Qalb va tafakkur qachon erkin bo'ladi. Umuman ruh erkinligi nima? Odam qismatining murakkabligini bilish jasorati qandoq?

San'atkor o'z qalbining qasriga kira olgandagina bu savollarga yuksak va yangicha javoblar kaytar oladi. Negaki u yurak qasridan hech payt qup-quruq qo'l bilan qaytmaydi. Bizga kutilmagan katta fikr, g'aroyib ohang, sira uchratmaganimiz tashbeh va poetik obrazlar hadya olib keladi".¹

Inosning kamolot yo'li mana shu haqiqat haqida chuqur o'ylashdan boshlanadi. Va u asta-sekin o'zligini izlaydi. O'z-o'zini anglab etgan esa, olamni anglaydi. Shu tariqa u "olam uyi"da g'am va g'aflatda tutqin yashashdan

¹ Ibrohim G'afurov She'riyat ruhiy munosabat. –T.: 1990.

ruhini qutqaradi. Kishi o'zini xirs, ta'na, nafs, g'aflat va nodonlik singari mayllardan poklamasa, u hech vaqt komillik darajasiga eta olmaydi.

Bahrom Ro'zmuhammadning o'zi bir suhbatida erkinlik haqida shunday degan edi: "...Inson mutlaq erkin bo'lmog'i lozim: loaqal san'atda, hech bo'lmaganda "men erkinman" kalimasini talaffuz qilayotganda. Bizni qurshab turgan qafasda so'z darvozasi orqaligina chiqib ketasiz va ozod havo bir daqiqa yuragingizni sovutadi, ruhga allaqanday samoviy hid yuqib qoladi. aynan shu ifor kishanlarni kesa biladigan ko'rinmas pichoqdir".

Ulug' gumanist yozuvchi Dostoevskiy yozgandi. "Men to'la realizmga amal qilgan holda insondan inson topishga intilaman. Meni psixolog deyishadi. Undaymas, men eng yuksak ma'nodagi realistman, ya'ni inson qalbining barcha teranliklarini aks ettiraman". Ulug' yozuvchi garchi o'zining estetik qarashlari va badiiy printsiplarini aytayotgan, o'z ijodiy metodining mohiyatini ifodalab berayotgan bo'lsada, bu ajoyib fikr keng ma'noda badiiy adabiyotning hamma janrlari, barcha turlari uchun benihoya muhimdir. Adabiyotning bosh maqsadi ham inson ruhiy dunyosi, ichki olamining teran haqiqatlarini gavdalantirishdadir. Insondan insonlikni topib tasvirlash uning qalb olamiga iloji baricha chuqyr kirib borish adabiyotning, uning go'zal turi she'riyatning ham birinchi darajali vazifasidir.

Shu ma'noda davrni, davr kishisini qalbida kechmish tug'yonlarni ekspressiv tarzda yoritib bergan Abduvali Qutbiddinning "Izohsiz lug'at" dostoni "sara kishilar" – san'atni yuqori darajada xis qiluvchi kishilar didiga ishonchla yozilgan haqiqiy san'at asardir. Ushbu doston biz o'rganib qolgan an'anaviy dostonlardan barcha xususiyatlari bilan farqlanadi. Avvalo dostonda benihoya keng shoir tafakkuri va xis-tuyg'ular almashinuvidan paydo bo'ladigan ruhoniylaxlitlik kuzatiladi. Asarda zohiriy voqealar tizimi syujet chizig'ini tashkil qilmasligi ham dostonning g'ayri'an'anaviyligidan dalolat beradi. Dostonning umumiy xususiyatlari xususida to'xtalishdan chekinib,

uning avj nuqtasi, ya'ni kechikkanlar fojeasi shavqatsiz ravishda ochib berilgan qatorlarga to'xtalaylik.

To'rt qirg'oq bo'ylab
amalsiz chorasiz a'molsiz
o'taverib, yuraverib,
o'qchiyverib, ayniyverib,
oqibat o'lik qarg'aning
jasadiga duch kelib,
arralangan daraxtday yiqilib,
ruhim mana shu bo'sh qafasga o'tsa edi deb
qarg'aning qaychiday ochilgan tumshug'iga
puflab o'tirgan odam
Kechikding

Ushbu asar murakkab metaforalar, o'ziga xos ramziy o'xshatishlar asosiga qurilgan. Vaqt va zamondan, aniq faktlardan o'sib ketib, umuminsoniy fojelarni o'ziga xos san'atkarona tahlil qilish asarni fazilatini yanada oshirgan.

Kechikding deya qilingan xitob, agar siz o'zingizni ma'lum ma'noda anglay boshlagan bo'lsangiz sizga ham tegishlilikini dilingiz tub-tubidan xis etasiz. Kechikkanlar qatoridagi o'zingizni shaklu-mamoyilingiz quyidagidayligin tan olasiz:

Qizil va sariq shaqol ko'z uzmay
kuzatib turibdi
har bir harakatingni
qo'zingdan, burningdan
bitlar chiqmoqdalar
amal-taqal qilib,
og'zingdan semirib ketgan qurbaqa
zo'rg'a tumayotir,
kekirdagingni yorib yuboror zuluk,

seni tashlab qochyapti
safroda, balg'amda o'tda va
qonda tarqaganlar.

70 yillik markazdan turib boshqarilgan omma fojiasi dostonda to'laligiga ochib berilgan. Mutelik, manqurtlik kabi illatlar botg'og'iga botgan, ya'ni kechikkanlar harakati mudom qizil va sariq shaqol kuzatuvchida. Shoirni "qizil va sariq shaqol deya kimlarni nazarda tutayotgan ma'lum. "Og'zingdan semirib ketgan qurbaqa zo'rg'a tushayotir" degan murakkab o'xshatishni qo'llab o'tadi shoir. Shoir nazarda tutayotgan kechikkanlar qatoridagi odamning so'zi ham aytarlik darajada sof emas. Bu bilan balki shoir xujayralarining qat-qatlariga Marks, Engel's kabi mafkurachilar o'gitlari sinchilib ketgan zamondoshlariga nisbatan kinoya qilayotgandir balki.

Ayrim bir kimsalarni faqat bugungi bilan yashayotgan (biroq, uni ham risoladagidek emas), soflik, haqiqat, odamiylik, mehr kabi inosniy fazilatlarsiz umrguzonlik qilayotgan, boshqalar u yoqda tursin hatto o'ziga begonaligi xususida ko'plab yozilgan. Matbuotda bir qancha publitsistik maqolalar e'lon qilindi. Televidiniyada ham bir qancha chiqishlar bo'ldi. Shoir Salim Ashur ham bu holatdan qayg'urib yozadi:

Mana shu kichkina yuragim bilan
Yolg'izlikka qarshi urushdin, lekin
Yolg'izlik engadi insoniyatni⁹.

Taraqqiyot asri deya e'tirof etilayotgan XX asrda insoniyat faqat o'z-o'zidan, bir-biridan begonalashibgina qolmadi. O'tmishda ajdodlari yaratgan madaniy merosidan uzoqlashgan inson tabiatdan ham ma'lum darajada yiroqlashdi. Unga o'gay onaga qilingandek munosabat qila boshladi. O'zini tabiatni bir parchasi ekanligini esdan chiqarib qayaydi. Sobiq Ittifoq davrida tabiatni jilovi bizni qo'limizda, uni hohlagan kuyimizga sola bilamiz degan aqida keng quloch yozgandi. Bu aqida sabab tabiat aziyat chekdi. Biz bilib bilmay tabiatni bizni to'ydirayotgani, farzand deya bilgani uchun jazoladik.

Endi esa afsuski o‘zimiz aziyat chekishga, jazolanishga mahkummiz. Tabiat bizlardan etkazgan ozorlarimiz uchun o‘ch olmoqda. Orol fojeasining o‘zi ham buni yaqqol isbotdir. Shoir Abduvali Qutbiddin o‘zini tabiat farzandi, tabiatdagi jamiki hayvanot olamini qardosh sifatida bilib, shu bilan men odamiylik kasb etaman deya ko‘nglimizga ajib bir oydinlik kiritsa ne tong:

Barmog‘im qaboqqa qo‘ydim o‘rtandi,
emrandim,
nigohim tindi aylandi
Bildim.
a‘zoi badanim hayot
shirasidan
Hamshiram-turna
Qondoshim-jayron
Jigarim-arg‘uvon
Hoki turobdanman,
Inim-qumursqa,
Og‘am-ot
Bildim-Odamiy zotman,
Odamiyzot...¹

Odamiylik fazilat barcha davrlarning komillikka intiluvchi insonlarining yuksak qadrlaydigan tushunchasi hisoblanib kelingan. Sharq falsafasida ayniksa bu xususiyat o‘z tajassumini topgan. Didaktik mazmundagi Yu.X.Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Kaykovusning “Qobusnoma”, Alisher Navoiyning qator g‘azallarida yuksak maqomda tarannum etilgan bu fazilat hozirgi odamlarimizdan ham begona emas. Ularni yuragida ham bu tuyg‘u mavjud kelajak avlodni komil inson qilib tarbiyalashda ham shu sababdan madaniya meroslarimizga tayangan holda ish yuritmog‘imiz lozim.

¹ Abduvali Qutbiddin. Izohsiz lug‘at // Sharq yulduzi. 1990. -№4. –B.112.

O'zbek modern she'riyatida sarbast she'rlardan farqli, o'zida ham nazmga, ham nasrga xos xususiyatlarni mujassamlashtirgan mansur she'rlar ham alohida o'rin egallaydi. "Mansuralar og'zaki nutqdagi so'zlashuv tartibiga asoslani shi bilan nasrga monandligi, biroq o'z ta'sirchanlik darajasi, jo'shqin ohang yo'g'ralgani bilan she'rga o'xshab ketishi" tufayli ruhiyatimizga boshqacharoq ta'sir qiladi. Mulohazalarimizni Bahrom Ro'zimuhammadning ushbu manzurasini misolida dalillab o'taylik:

"Hatto tushimda ham tushunmaysan meni. Bir dasta gul tutaman. Har lahzada rang-tusini o'zgartirib turadi gullar. Gullar shunaqangi ifor taratadiki, agar jannatda shunday iforo borligini bilsam men hech qachon gunoh ish qilmasdim. Tushimda ham ishonmaysan, menga. Tushimda ham chiraylisan. Sen hech o'zgarmaysan. Sen hech kimga vafo qilmaysan. Tushim tushinga kirsin".

Ko'rinib turibdiki, ushbu manzurada tuyg'ular mavji kuchli, jo'shqin akslangan. Fikrni ifodalash tarzi jixatidan ushbu manzura nasrga o'xshasada, unda she'rga xos ohangdorlik mavjud. XX asr o'zbek adabiyotiga nazar tashlasak Cho'lpon, Oybek, I.G'afurov, Rauf Parfi, B.Ro'zimuhammad, Fahriyor kabi ijodkorlar ijodida manzuralarni ajoyib namunalarini uchratishimizga bo'ladi.

O'zbek modern she'riyati namoyondalari ijodini kuzatar ekanmiz, ular ijodida ma'lum biro qursurlar, kamchiliklar borligi ayonlashadi. Bahrom Ro'zimuhammadning she'rlarida hammamiz ko'rib, kechirib yurgan o'y-fikrlar, voqea-hodisalar, odamlar xilma-xil qirralari bilan aks etadi. Tevarakatrof, kishilar surati alohida yorqin, yaxlit emas, qandaydir kemptigu qiyofasizligi yoki ming xilda turlanishi chorasizligi, sayoz va shavqi uchgan holati nazardan o'tadi. Shunday qisqa, uluq-yuluq manzaralarga mos, hamda, kundalik oddiy kunlar kabi bo'yoqsiz nutq tanlangan. She'riy nutqning turmush darajasiga tushishida so'zning xizmatiga shoir e'tiborni kuchaytirgan: so'zlashuv jarayonini, muloqat muhitini atay hayotdagi real va chin darajada

tutib turish seziladi. Va merizmga bir qadar chek qo'yadi. Uning qahramonida turmushning "nusqi" juda aniq holatlarda ko'rinadi: u goh qo'rqadi, goh umidlanadi, ba'zan donishmandlarga vazmin mushohada yuritadi, ba'zan esa jur'atsiz, ora-sira kurashga ham chog'lanib qo'yadi. Bu voqalarni ongga, ruhga ko'rsatayotgan ta'sirlari bilan izohlansa kerak. Kechimshimiz va kechirilayotgan damlarimizning aynan o'zi bo'lsa kerak.

Biroq, shoir alohida individuallikdan, mohiyatni yashirib bayon qilishdan-an'anaviy she'r doirasidan chiqishga astoydil harakat qilmagan hollarda juda soddalashib qolgan. "Uchishni hayol qilgan qurbaqa" yoki "Hasis sichqon" illatli kishilarning ma'joziy suratdagi holatini hikoya qiladi. Shoirning bu qiyofaga kiritgan o'zgarishi, o'zining qo'shgan chizgichi yo'q.

"Tuxum ichidagi tovush"da "hamma yoq qorong'u" - tuxumdan chiqmagan jo'ja, shartli ravishda po'stlog'idan tashqaridagi olamni muhokama qiladi. tushkun ohang ta'sir qiladi, biroq qorong'ulik atay quyuqlashtirilgani sezilib turadi, negaki rang she'rdagi istehzam talqinga singishib ketmagan, biroz erish ham tuyuladi kishiga: kinoya me'yorigacha pishib etmagan, maejozga munosabat ortiq darajada jiddiylashib ketgan. Yoki qo'g'irchoq odamning shakl-shamoyili karikaturadan farq qilmaydi, uning qalbidagi ozgina umidi va yakun toplish intihosidan shunchaki kulish bor, xalos. "Tabassum kuylagida" aslida "ulkan bir alam" yashiringani obrazli tarzda aytilgani bilan engil tushuniladi va shu bilan birga tez unutiladi.

Shuningdek, endigina shakllanayotgan yosh ijodkorlar ijodida taqlidchilikni kuchayib ketayotgani achinarli hol. Ma'lumki, taqlidni ikki turi bor: o'z-o'ziga taqlid va boshqa biron bir ijodkorga taqlid. Adabiyot maydoniga kirib kelgan ko'pgina yosh ijodkorlar ijodida taqlidni har ikkala turi ham uchrab turibdi. Adabiyotni, ijodni, nimaligini xali to'la anglab etmay, mazmun-mohiyatini tushunmay adabiyot maydonini payhon qilayotgan bu "ijodkor"larga qarata Cho'lpondek "adabiyot nadur" deya savol bergingiz keladi. Ular ijodida

shuningdek jimjimadorlikka, soʻzlarni olifta libosga burkab koʻz-koʻz etishga urinish hollari ham tez-tez uchramoqda.

Albatta taqlid qilishni tushunish mumkin. Ijodkor ilk bosqichda kimgadir taklid qiladi. Lekin taqliddan tezroq qutilishiga urinish, oʻz ustida ishlashdan aslo erinmaslik lozim. shundagina biz oʻzga ijodkorga emas, hattoki oʻz-oʻzimizga taqlid qilish kasalidan forigʻ boʻlamiz. Bizni koʻnglimizda bunday mulohazalar asosan hali ilk kitobchilari chiqqan yosh ijodkorlar sheʼrlarini oʻqigach paydo boʻldi. Goʻzalbegim, shamsiya, B.Pirnafasov, Xayrullo kabi yosh ijodkorlarni sheʼrlarini kuzatgan kishi yuqorida biz taʼkidlaganimizdek nuqsonlarga duch keladi.

Munaqqid Ulugʻbek Abduvahob 90-yillar sheʼriyatiga nazar tashlar ekan, ushbu yoʻnalishda qalam tebratayotgan ijodkorlarni yutuqlarini koʻrsatayotib, kamchiliklari toʻgʻrisidagi toʻxtalib oʻtadi: “Abduvali Qutbiddin, Bahrom Roʻzimuhammad, Abduvohid Hayit, Aziz SAid kabi shoirlarimiz sheʼrlari oʻzining yuksak va nozik badiyati, sanʼatkorona pishiq ishlangan quyma satrlari, chaqmoqdek chakib, xotiraga mexlanib qoluvchi tashbeh, istiora, oʻxshatishlari, nihoyat qay biridagi junun, qay biridagi falsafiy mushoxada chuqurligi oʻquvchini gʻaroyib olam-hayol va tasavvurlar dunyosi sari etaklaydi, uning koʻngliga hisobsiz zavqu-quvonch bagʻishlaydi. Ayni paytda ularni oʻqib, “ijtimoiy men”, yaʼni shaxs qydratini, mashrabona jununni, teran idrok etilgan iztirobni, sogʻinasan kishi. Shu bilan birga, yuqorida nomlari qayd etilgan shoirlarning koʻplab sheʼrlarida soʻzga zeb berish, chiroyli va ohangdosh kalimalarni qaldirgʻoch bolalaridek tizib qoʻyishga intilish natijasida sheʼrning tugʻulishiga sabab boʻlgan ilk tuygʻu-darddan uzoqlashish bor. Shu boisdan boʻlsa kerak, faqat sheʼr yasashu mahoratni namoyish qilish uchungina yozilgandek taasurot qoldiradi. Mana bir misol:

Kechiring, onajon,

Bugun yoningizga bora

olmadim

Chiqay desam,

kulcha bo‘lib o‘lib

qopti yo‘l

Och edi besh kundan buyon –

Tanavvul qilmagan birorta qadam.

Qirib chetga tashlay desam,

Hakondozi yo‘qotib qayibman

Qyalimda soyandoz

Soya yig‘ib yuribman –

Chatnak to‘la soya qaynayotir,

Qozon to‘la soya pishayotir

Besh kundan buyon

Hayol soya g‘azoim

Aklsoya jazoim

Tasavvursoya sazoim

Qyalimda soyandoz...

She‘rning birinchi bayti – xabar, ikkinchi favqulodda tashbeh – “Chiqay desam kulcha bo‘lib o‘lib qopti yo‘l”. Qolganlari she‘r yasash yo‘lidagi chuchmallik. Chunki dard qyuyq emas, didga ilashmaydi.

O‘quvchini xissiyot tafakkurini qitiqla – maydigan, qalbida nafis tuyg‘ularni uyg‘otmaydigan bunday she‘rlar o‘quvchini didini o‘tmaslashtirishga xizmat qiladi, xolos. Shunga asoslanib dadil ayta olamizki, modernizm vositalaridan foydalangan har qanday asar ham modernizm namunasi bo‘lib qolavermaydi.

Albatta, har bir ijod maydonga kirib kelgan ijodkordan birdek kamchiliklardan holi, ruhiyatimizni tozartuvchi she‘r kutish qiyin. Shoir hamma vaqt ham yaxshi she‘r yozolmiasligi mumkin. biroq yaxshi she‘rni shoirni o‘zi ham yozmaydi. Yaxshi she‘rni o‘zi yoziladi.

Adabiyot va san'atdagi shakl, uslub izlanishlari ijodkorni tafakkurni o'stirishga intilish istagidan kelib chiqadi. Modern she'riyati ko'ngil kechinmalarini ohista ohangda, qabariq obrazlarda, kutilmagan ohorli qiyoslarda ifodalashi, turli talqinlarga imkon berishi kabi qator xususiyatlari bilan o'zbek she'riyatining borliq hodisalari va inson dunyosini idrok etishda falsafiy teranlashib borayotganidan, uning intellektuallik miqyoslari kengayayotganidan dalolat beradi.

X U L O S A

Mazmunan yangi yoʻnalish kasb etayotgan mustaqillik davri oʻzbek adabiyotshunosligida hali oʻzining obʻektiv ilmiy bahosini olmagan muammolar etarlicha topiladi. Ayniqsa, bu boradagi nazariy boʻshliqlar lirikada bisyor. Garchand, sheʼriyatning ijtimoiy-psixologik asoslari, estetik mohiyati, mazkur adabiy turning taraqqiyot tendentsiyalari, tarixiy takomili masalalarida atroflicha tadqiqotlar olib borilgan boʻlsa-da, uning maʼrifiy va estetik tarbiyaviy ahamiyatini toʻliq anglab etish amri-maholdir. Shunga koʻra, hech ikkilanmay aytish mumkinki, sheʼr ilmi taʼlimi badiiy adabiyotni oʻrganishning kalitidir.

Shunday ekan, insonning ruhiy dunyosi mahsuli boʻlgan poetik tizimning nazariy-ilmiy asoslarini tadqiq qilish muayyan ehtiyoj samarasidir. Ayni paytda, sheʼrning yuzaga kelishi bilan bogʻliq ichki va tashqi omillar tabiatini oʻrganish nazm sarhadlarini toʻgʻri tayin etishga yaqindan yordam beradi. Sheʼr oʻzi nima va uning ortida qanday tushunchalar turadi? – degan savol insoniyat paydo boʻlgandan buyon mavjud. Biroq mazkur katta jumboqning mohiyati hanuz-hanuzgacha echilmagan. Aksariyat hollarda, ijodkorlarning «Men xalqim uchun, Vatanim uchun yozaman», «Men xalqimning orzu-armonlarini ifodalash niyatida qalam tebrataman» va shu taxlit iddaolariga duch kelamiz. Qachon va qay taxlitda sheʼr yoziladi? U zaruratmi, ehtiyojmi yoki ermak? Yoxud koʻngilni yozishning bir holatimi? Baʼzan, shoirning «Men oʻzim uchun yozaman», degan eʼtiroflarini ham eshitib qolamiz. Asl badiiy barkamol sheʼrning yozilish sabablarini qanday izohlash mumkin? Ayrim shoirlar «sheʼr – mening farzandim misoli», «sheʼr – sirdoshim», «sheʼr – xotira» singari mushohadalarni ilgari suradi. Mashhur allomalardan biridan shu haqda soʻralganda, u «Sheʼr ham tirik jon. U oʻylaydi, soʻzlaydi va iztirob chekadi», - deya eʼtirof etgandi. Shu oʻrinda bir narsa aniq: Sheʼr taʼriflanmaydi, izohlanmaydi va anglanmaydi. Chunki u tavsiflarga sigʻmaydi. Bu sirli-jozib

mohiyat aynan uni shakllantiradigan hamda tadrijiy asosda rivojlanib borishini ta'min etadigan ruhiy kechinma tabiati bilan chambarchas bog'liq. Biz malakaviy ishimizda mazkur muammoga imkon qadar oydinlik kiritishga intildik. Biroq kuzatilgan mushohadalar faqat va faqat shaxsiy farazlar samarasi, mutlaq haqlikka aslo da'vo qilmaydi.

Olib borilgan tadqiqot mobaynidagi kuzatishlar quyidagicha umumiy xulosalar chiqarish imkon yaratadi:

She'r badiiyati shartlaridan biri lirik kechinma hodisasi poetik ijodning tom ma'nodagi ishtirokchisi va asosidir. Ijodkor bilan o'quvchi, tashbeh bilan aytganda, kechinma ko'prigi orqali bir-birini topadi. Ruhiy kechinma she'riyatning qoni, o'q ildizi, badiiy mohiyati demakdir. Shu ma'noda, nazm va lirik kechinma alohida-alohida adabiy hodisalar sanalsa-da, ularni bir-biridan ayricha tasavvur qilib bo'lmaydi. To'g'rirog'i, she'r – umumiy qonuniyat, lirik kechinma – xususiy adabiy qonuniyatlarga bo'ysunadi.

Voqelikning ma'lum ta'siri va aks ta'siri natijasida tug'ilgan tuyg'u – lirik kechinmadir. Bu holat shoir ma'naviy-ruhiy, estetik printsiplarining munosabati tarzida sodir bo'ladi va timsoliy ifoda madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

She'rdagi barcha qismlar kechinmani ifodalashga xizmat qiladi. Hozirgi o'zbek lirikasida kechinma asosan to'rt xil usulda ifodalanadi:

- a) she'rning asosiy poetik g'oyasini ifodalovchi biron-bir obraz vositasida;
- b) she'rning etakchi poetik mazmunini belgilovchi kechinma obrazi orqali;
- v) poetik peyzaj, vaziyat tasviri orqali;
- g) poetik obraz ohang, ritm, poetik ko'chim kabilar orqali.

Har bir lirik janr hissiy kechinma ifodasida o'ziga xos tomonlarga ega. Lirik she'r, g'azal, uchlik, to'rtlik, nasriy she'r, oq she'r kabi janrlar har qanday mazmundagi tuyg'ularni ifodalay olsa, qasida, marsiya, faxriya kabi janrlar ma'lum mazmunli kechinmalarnigina ifodalay oladi.

Bugungi she'riyatimiz nihoyatda xilma-xil, ko'pqirrali. Bir ikki satr emas, bir ulkan shoir, hattoki, bir she'riy maktab oqim ham uning qiyofasi manzarasi haqida tasavvur berishi qiyin. Bunga Rauf Parfi ijodiga mansub so'nggi yillardagi she'rlar isbot bo'la oladi. Zero, bugunga kelib adabiyotning mavzu mohiyati, o'zgargandek adabiyot u yoki bu voqega munosabat bildirish emas, balki butun vujudi bilan Inson deb nomlangan mavjudodni o'rganishga tahlil va talqin qilishga kirishdi deyish mumkin. Bu mulohazalarmizni R.Parfi ijodi to'la tasdiqlaydi. Shoirda miqyosli tafakkur madaniyati, tahlil mahorati bilan yuksak ma'naviy intilishlar va teran dil birlashib ketganligiga shak-shubha yo'q. Rauf Parfining she'riyat dunyosida o'zgacha timsol, obrazlar majudki, uning mohiyati, ayniqsa, shoir hayoti, ijodiy taqdiri haqidagi she'rlarida ijodkorning o'zigagina ayon boshqalar uchun sirli g'aroyib jarayonlar tarzida namoyon bo'ladi.

Shuningdek, hissiy idrok har bir shoirda turlicha kechadi. Jumladan, H.Xudoyberdieva, Iqbol, S.Ashur izlanishlarida kechinma ko'pincha uning tashqi olam, odamlar, rusumlar bilan qarama-qarshilikdan tug'ilib, xalqona ohang va ravon ifoda usulida aks etadi. A.Qutbiddin, A.Said, B.Ro'zimuhammadlar kuylagan kechinma – tuyg'ular esa asosan shoir ruhiyati ichidagi, poetik olami zamiridagi ziddiyatlardan dunyoga keladi hamda metaforik, ko'p qatlamli she'riy matn silsilalarida o'z in'ikosini topadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. O‘zbekiston: Milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. -T.: O‘zbekiston, 1993.
2. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q.-T.: Sharq, 1998.
3. Karimov I.A. Ma’naviy yuksalish yulida. Tarix, ma’rifat, ma’naviyat. - T.: O‘zbekiston, 1998.
4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat engilmas kuch. - T.: Ma’naviyat, 2008.
5. Karimov I.A. Yangicha fikrlash-davr talabi.-T.: O‘zbekiston, 1997.
6. Abdullaev O. She’riyatning tiniq osmoni. -T.: Adabiyot va san’at, 1979.
7. Akramov B. She’riyat gavhari. - T.: Adabiyot va san’at, 1979.
8. Adabiyot-ruhiyat mulki (Adiblarimizning ijod sirlari haqida durdona fikrlaridan).-T.: Adabiyot va san’at nashriyoti, 2000.
9. Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. - T.: O‘zbekiston, 2002.
10. Vohidov E. Shoiru she’ru shuur. - T.: Yosh gvardiya, 1987.
11. Doniyorova Sh. Davr va qahramon muammosiga doir // O‘zbek tili va adabiyoti. -1999. -№3.
12. Karimov H. Insoniy iztiroblar va tuyg‘ular haqqoniyligi // Sharq yulduzi. -2003. -№3.
13. Karimov H. O‘zlikning badiiy ifodasi. // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. -2003, -11 iyul’.
14. Mualliflar jamoasi. Adabiyot nazariyasi. 1-tom. -T.: Fan, 1978.
15. Mirvaliev S. O‘zbek adiblari. - T.: Yozuvchi, 2001.
16. Mamajonov S. Ranglar va ohanglar. -T.: Adabiyot va san’at, 1978.
17. Meliev S. Lirik fojilik // O‘zbek tili va adabiyoti. – 1991. №3.
18. Mirzaev S. Xalqchil adabiyot yo‘lida // Muloqot. -2000. -№ 5.
19. Muhammad Yusuf. Saylanma. - T.: Sharq, 2002y.
20. Muhammad Yusuf. Ulug‘imsan Vatanim. - T.: Ijod dunyosi, 2004.

21. Normatov U. Jasorat jozibasi. // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. -2001, 4 may.
22. Nazarov B. Tanqidchining ruhiy dunyosi // O'zbek tili va adabiyoti.-2003. -№3. 43.
23. Oripov A. Ehtiyoj farzandi. - T.: Yosh gvardiya, 1988.
24. Rasulov T. Badiiy asar qanotlari. - T.: Adabiyot va san'at, 1979.
25. Sulstonov I. Adabiyot nazariyasi. - T.: O'qituvchi, 1980.
26. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. -T.: Fan, 2004.
27. Sarimsoqov B. Lirikada badiiy tafsil // O'zbek tili va adabiyoti. 1992. - № 5-6. - B. 10-14.
28. Sarimsoqov B. Adabiyotda shakl va mazmun mutanosibligining ayrim muammolari // O'zbek tili va adabiyoti.-1997.-№6.
29. Umurov H. Adabiyot nazariyasi. - T.: Sharq, 2002.
30. Umurov S. Ulug'imsan, shoirim. // O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 2004. 7-may.
31. Xudoyberdiev E. Adabiyotshunoslikka kirish. - T.: O'qituvchi, 2001.
32. Xalibekov A. Zamon, adabiyot, qadramon // Hurriyat.-2001. 2 may.
33. Eshonqul N. Ijod qudrat, go'zallik, ilohiyotga daxldorlikdir // Milliy tiklanish. -1998. 19-may.
34. O'zbek adabiyotida janrlar tipologiyasi va uslublar rang-barangligi. -T.: Fan, 1983.
35. G'afurov I. Lirikaning yuragi. - T.: Yosh gvardiya, 1982.
36. Qosimov Y. Uyg'onish sadolari. - T.: Adabiyot va san'at, 1991.
37. Hotamov N, Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. - T.: "O'qituvchi". 1983.
38. Haqqulov I. She'riyat – ruhiy munosabat. - T.: Adabiyot va san'at, 1990.